

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI  
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI  
O'ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI

HOZIRGI ZAMON O'ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI  
**“Usmon Azimning dramatik asarlarida tarixiy shaxs talqini”**

mavzusida

BITIRUV MALAKAVIY ISH

|               |                     |
|---------------|---------------------|
| Bajaruvchi:   | Nurmatova S.        |
| Ilmiy rahbar: | f.f.n. Davronova M. |

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**  
**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI**  
**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**  
**O'zbek filologiyasi fakulteti**

**Hozirgi zamon o'zbek adabiyoti kafedrasida**

**Nurmatova Sevara Erkinovna**

**“Usmon Azimning dramatik asarlarida tarixiy shaxs talqini”**

**5A220101 – Filologiya(o'zbek filologiyasi) ta'limi yo'nalishi**

**bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun**

**BITIRUV MALAKAVIY ISH**

**Ilmiy rahbar:**

**f.f.n. Davronova M.**

**2013-yil**

**“\_\_” \_\_\_\_\_**

Bitiruv malakaviy ish “Hozirgi zamon o'zbek adabiyoti” kafedrasida bajarildi. Kafedraning 2013- yil \_\_\_\_-maydagi majlisida muhokama qilindi va YaDAKga himoya uchun tavsiya etilgan(\_\_\_\_-son bayonnoma).

**Kafedra mudiri:**

**dots. Nosirov. A**

Bitiruv malakaviy ish YaDAKning 2013 - yil “\_\_\_\_” iyundagi majlisida himoya qilindi va \_\_\_\_\_ ball bilan baholangan(\_\_\_\_-son bayonnoma).

**YaDAK raisi:**\_\_\_\_\_

**A'zolari:** \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

**Samarqand 2013**

**MAVZU: USMON AZIMNING DRAMATIK ASARLARIDA TARIXIY  
SHAXS TALQINI**

**REJA:**

**KIRISH**

**I BOB. USMON AZIM DRAMALARIDA OBRAZLAR TALQINI**

**II BOB. ADIB DRAMALARIDA TARIXIY SHAXSLAR IFODASI**

**XULOSA**

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishgach, unda o'z-o'zini anglash, o'zlikni qadrlash va ulug'lash, milliy iftixor tuyg'ularining shakllanishi kabi badiiy tafakkur madaniyati namoyon bo'la boshladi. Bu davrda adiblarimiz goh tarixiy voqelikka, goh diniy-axloqiy g'oyalarga, goh bugungi kunga murojaat eta boshlashida millat istiqbolini, Vatan taraqqiyotini ta'minlashga o'z nazarlarini qarata boshladi. Bundan tashqari ular ijodida inson ruhiyatining falsafiy-psixologik tahlili orqali shaxsni kamolotga yetkazishga harakat qila boshlaganligini kuzatish mumkin. Darhaqiqat, ular ijodida odamdagi odamiylikni kashf etish – ustuvor tamoyilga aylanib bormoqda. Agar avvalgi o'n yilliklarda hozirjavoblik, oddiylik, soddalik, zamonaviylik, aktuallik, rostgo'ylik, siyosiy faollik badiiyatning muhim belgilari sifatida ilgari surilgan bo'lsa, endilikda milliylik, tarixiylik, go'zallik, ezgulik, adolat singari bashariy qadriyatlar estetik mezon sifatida badiiy tafakkurdagi o'zgarishlarni aniqlovchi va belgilovchi yetakchi mezonlar bo'lib borayotir.

Istiqlol yillarida yozilgan yirik asarlar badiiy-estetik saviyasini ham mavzu mundariyasi ham tasvirlash va bayon etish usuli ham rang-barang, biri ikkinchisini takrorlamaydi. Bu davr avvalambor chinakkam ijod qilish, yaratish xalq so'zini, haqiqatni baralla aytish erkinligini berdi. Bu haqda Prezidentimiz I.A.Karimovning quyidagi fikrlari muhim ahamiyatga ega: "... dunyodagi zo'ravon va tajavvuzkor kuchlar qaysi bir xalq yoki mamlakatni o'ziga tobe qilib bo'ysundirmoqchi, uning boyliklarini egallamoqchi bo'lsa avvalambor, uni quolsizlantirishga ya'ni eng buyuk boyligi bo'lmish milliy qadriyatlari, tarixi va ma'naviyatidan judo qilishga urinadi"<sup>1</sup>. Har bir xalq uning uyg'oq farzandlari esa bu kabi jaholatga yo'l qo'ymaslikka harakat qilishadi. Xalqning shunday farzandlaridan biri Usmon Azim sanaladi.

Usmon Azim – shoir, dramaturg, kinodramaturg va nosirdir. U 1950- yilda Surxandaryo viloyatining Boysun tumanida tug'ilgan. 1972- yilda Toshkent Davlat

---

<sup>1</sup> Каримов И. Юксак маънавият - енгилмас куч. -Тошкент: "Маънавият", 2008 йил, 14- бет.

universitetining jurnalistika fakultetini tugatgan. U dastavval jurnalist sifatida turli gazeta-jurnallar va nashriyotlarda hamda respublika radiosida ishlagan.

Usmon Azim 1979 -yilda chop etilgan “Insonni tushunish” ilk sheʼriy kitobi bilan adabiy jamoatchilikning eʼtiborini qozongan. Shundan soʻng uning “Holat” (1979), “Oqibat” (1980), “Koʻzgu” (1983), “Surat parchalari” (1985), “Dars” (1985), “Ikkinchi aprel” (1987), “Baxshiyona” (1989), “Gʻaroyib ajdarho” (1990), “Uygʻonish azobi” (1991), “Gʻussa” (1994), “Uzun tun” (1994), “Bor ekan-da, yoʻq ekan” (1995), “Saylanma” (1995), “Kuz” (2003), “Sogʻinish” (2004), “Fonus” (2009), “Yurak” (2010) sheʼriy hamda “Jodu”(2003) nasriy va “Adibning umri” (2011) dramatik toʻplamlari bosildi. Shoirning yaratgan asarlari adabiyot jamoatchiligi tomonidan zoʻr qiziqish bilan kutib olindi va Usmon Azimning XX asr oʻzbek adabiyotining eng yorqin isteʼdodlaridan biri ekanligi ayon boʻldi. 2003-yilda nashr etilgan “Kuz” sheʼriy kitobi esa sheʼriyatimizning soʻnggi yillardagi yuksakliklaridan biri deb baholanmoqda.

Usmon Azim sheʼriyati xususida S.Mirvaliyevning fikrlari ham qimmatli: “U yaratgan oʻnlab toʻplamlarga kirgan sheʼrlar, dostonlar yorqin tuygʻularga, ifodalarga boyligi, joshqin va jozibadorligi, shiddatkor va daʼvatkorligi, goh gʻamgin, goh begʻubor erkalovchi ohanglari bilan kitobxon qalbidan chuqur joy oladi”<sup>1</sup>. Shu bilan birga hayotiyliigi, oʻtkir drammatizmi va fojiaaviyligi bilan oʻquvchini hayajonga soladi, uyqudagi tuygʻularini junbushga keltiradi.

Ijodining ilk davrlarida radiodramaturgiyada (“Baxtli boʻlaylik”, “Hujjatli film uchun sujet”, “Bahor va malika” pesalari) oʻzini sinab koʻrgan shoir, keyingi yillarda drama yoza boshladi. Uning “Kunduzsiz kechalar” (1998), “Alpomishning qaytishi” (2000), “Bir qadam yoʻl” (2002), “Oʻtgan zamon hangomalari” (2003), “Adibning umri” (2005) dramalari sahnalashtirilgan. “Kunduzsiz kechalar” uchun “Eng yaxshi spektakl” degan mukofotga, “Alpomishning qaytishi” uchun 1999 yili “Eng yaxshi dramaturg” eʼtirofiga, “Alpomish” dostoni uchun kinofestivalning

---

<sup>1</sup> Мирвалиев С. ва Шокирова Р. Ўзбек адиблари. -Тошкент: “Фан”, 2007 йил, 221- бет.

maxsus mukofotiga sazovor bo'lgan. Usmon Azim – O'zbekiston xalq shoiri (2000) unvonini, shuningdek, yilning eng yaxshi she'riy asarlari nominatsiyasi bo'yicha "Ofarin" mukofoti, Gruziyaning V.Mayakovskiy nomidagi Davlat mukofoti (1982)ga sazovor bo'lgan.

Usmon Azim she'riyatida xalq og'zaki ijodiga xos sodda, lo'nda ifoda usuli mumtoz adabiyotimiz ohanglari bilan uyg'unlashib ketadi. U izlanuvchan, iste'dodli va ko'p qirrali shoir sifatida o'zbek she'riyati rivojida o'z o'rniga ega. Usmon Azim o'ttiz to'rt yildan ortiqroq davr mobaynida ijod etayotgan bo'lsa-da, uning ijodini to'liq qamrab olgan tadqiqot ob'ekti yaratilgan emas. To'g'ri, adabiyotshunoslikda Usmon Azimning bir qancha to'plamlariga bag'ishlangan maqolalar, Usmon Azimning adabiy portreti, monografiyalar yaratilgan. Biroq uning mustaqillik davridagi ijodi, dramatik asarlari adabiyotshunoslikda to'liq o'rganilgan emas. Bu esa bitiruv ishimizning dolzarbligini belgilaydi.

**Mavzuning ilmiy yangiligi.** Ko'pgina ilmiy ishlarda, maqolalarda 80-90 yillar o'zbek dramaturgiyasining harakatlantiruvchi ba'zi yozuvchilar ijodi yoki ijodidagi biror-bir jihat tahlil ob'ektiga aylanadi. Usmon Azim ijodi to'g'risida ham shunday fikrlar aytish mumkin. Biroq uning ijodi to'liq biror bir tadqiqot ob'ekti bo'lgan emas. Ayni paytda uning mustaqillik davridagi ijodiga dramatik asarlariga qo'l urilgani yo'q. Shu nuqtai nazardan mazkur malakaviy bitiruv ishimiz Usmon Azimning mustaqillik davrida yaratilgan dramatik asarlari bo'yicha adabiyotshunosligimizda yangilik bo'lishi mumkin. Qolaversa, adib dramaturgiyasida tarixiy shaxs talqini birinchi marta malakaviy bitiruv ishi aspektida o'rganilmoqda. Adib dramatik asarlaridagi g'oya, falsafiylik, shakl, mavzu, obraz, tarixiy shaxs obrazlari tadqiq etilgan emas. Bu esa malakaviy bitiruv ishining yangiligini ta'minlaydi.

**Tadqiqotning maqsad va vazifalari.** Malakaviy bitiruv ishining asosiy maqsadi Usmon Azimning dramatik asarlarida tarixiy shaxs talqini mavzusi yaxlit bir ob'ekt sifatida o'rganish, uning mahoratini badiiy olami misolida ochib

berishdan iborat. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni hal etish ko`zda tutiladi.

- Usmon Azimning dramatik asarlariga nazar tashlash;
- Dramatik asarlarda obrazlarga urg`u berish;
- Usmon Azim dramatik asarlarida tarixiy shaxslar xususida so`z yuritish;
- Shoirning o`ziga xosligini tahlil etish.

**Tadqiqot ob`ekti.** Malakaviy bitiruv ishining ob`ekti shoirning “Uyg`onish azobi” hamda “Adibning umri” to`plamlari tadqiqot manbai bo`lib xizmat qiladi. Bundan tashqari davrning yetakchi adiblari ijodidagi o`ziga xos jihatlarining paydo bo`lishiga xizmat qiluvchi omillardan biri sifatida o`zbek adabiyoti namoyondalarining ba`zilari ijodiga ham o`rni-o`rni bilan murojaat qilinadi<sup>1</sup>.

**Tadqiqotning metodologik asosi.** O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning milliy g`oya: ma`naviyat, qadriyatlar va madaniy taraqqiyotiga doir nazariy qarashlari mazkur malakaviy bitiruv ishining metodologik asosini tashkil etadi. Ishda hozirgi zamon adabiyotshunosligining yutuqlari, tajribalari va adabiyotshunos olimlarining nazariy qarashlaridan foydalaniladi<sup>2</sup>.

---

<sup>1</sup> Белинский В. Адабий орзулар. -Тошкент, 1979 йил; Иззат С. Адабиёт назарияси.- Тошкент: “Ўқитувчи”, 1985 йил; Умуров Х. Адабиёт назарияси.- Тошкент: “Шарқ”, 2004 йил; Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари.- Тошкент: “Ўзбекистон”, 2002 йил; Норматов У. Ижод сеҳри. -Тошкент: “Шарқ”, 2008 йил, Расулов А. Бадиийлик безавол янгилик.-Тошкент: “Шарқ”, 2007 йил; Мустақиллик даври адабиёти. - Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт, 2004 йил; Мирзаев С. Ҳаёт ва адабиёт. -Тошкент: “Шарқ”, 2004 йил, Н.Каримов ва бош. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. -Тошкент: “Ўқитувчи” нашриёти, 1999 йил, Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз.- Тошкент: “Янги аср адабиёти”, 2006 йил.

<sup>2</sup> Ўзбек совет танқиди тарихи 2 томлик, 1-том. – Т.: Фан, 1987; Ўзбек совет адабий танқиди тарихи. 2 томлик, 2-том. – Т.: Фан, 1987. Қаюмов Лазиз. Инқилобий драма. Ҳамзанинг драматик мероси. – Т.: Бадиий адабиёт нашриёти, 1970; Қахҳор А. Асарлар. 5 жилдлик. 5-жилд. Ҳақ сўзнинг кучи. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989; Қодиров М. Сеҳр ва меҳр. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980; Қодиров М. Ўзбек театри анъаналари. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975; Қосимов Б. Миллий уйғониш. – Т.: Маънавият, 2002; Қўшжонов М. Ҳаёт ва нафосат. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1970; Қўшжонов М. Ижод сабоқлари. – Т.: Ёш гвардия; Қўшжонов М. Маъно ва мезон. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1974; Қўшжонов М. Ижод масъулияти. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981; Қўшжонов М. Сайланма. 2 жилдлик. 1-жилд. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1982; Қўшжонов М. Сайланма. 2 жилдлик. 2-жилд. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983; Қўшжонов М. Ўзбекнинг ўзлиги. – Т.: А.Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 1994; Ғаниев И. Фитрат ва фитратшунослик. – Т. Фан, 2005; Ғаниев И. Фитрат драмалари поэтикаси. Филология фанлари доктори илмий даражасини олиш учун дис.Автореферати. –Т. 1998.

**Tadqiqotning tuzilishi.** Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

## I BOB. USMON AZIM DRAMALARIDA OBRAZLAR TALQINI

Badiiy durdona olamida adiblar, tanqidchilar, olimlar adabiyot nazariyasi va uning turlari haqida ko'p bosh qotirdilar va ularni ma'lum bir me'yoriga yetkazib berdilar. Ular adabiyotda asosan uch tur xos ekanligini aniqladilar. "Bular epos, lirika, drama"<sup>1</sup>. Shu bilan birga har bir turning bo'lakchalari mavjudligini, ya'ni janrlarga bo'linganligini ham ilmiyg'adabiy jihatdan asosladilar. Dramaning badiiy adabiyotning qiyin turi deb atalishi yana shundaki, unda voqealarni shunday ko'rsatish kerakki, ular ixcham ravishda namoyon etilishini, personajlarning xarakterini so'z va yumush bilan elastik holda, aniq va to'liq ochishni, tushuntirish, bayon etish, izoh berishdan to'la ravishda holi bo'lishni, keraksiz tafsilotdan qocha bilish san'atini egallashni talab qiladi. Dramaning xarakterli xususiyati shundaki, uning muallifi nasrchi va nazmchidan farqli o'laroq o'quvchilar hamda tomoshabinlar bilan o'z qahramonlari orqali bevosita gaplashadi, muloqotda bo'ladi. Dramaturg qahramonlarining faoliyatini ko'rsatib, axloqini ifodalab, ruhiy olamini ochib, o'zining hayot haqidagi tafakkurini izhor etadi, davrining muhim, dolzarb masalalariga munosabatlarini bildiradi. Bu hol dramada qahramonning ahamiyatini juda oshiradi, uning turmush mezonini aniqlaydigan shaxsga aylantirib yuboradi. Mana shundagina qahramonning hayotiy zamini, qilmishlari va xatti-harakatlarining ahamiyati ko'zga tashlanadi. Bunday qahramon dramaning g'oyaviy mohiyati bilan uzviy bog'lanib, uning tub ma'nosini gavdalantiradi, bosh dramaturgik konfliktning rivojiga alohida kuch bag'ishlaydi. Dramaning boshqa turlardan ajralib turadigan xususiyati shundan iboratki, harakat uyg'unligi. Yuz bergan hodisaga urg'u qilishimizning boisi shundaki, asar dialog va monologlardan tashkil topib, muallif "chetlashtirilib", o'z so'zidan mahrum qilinadi. Voqea va hodisa to'la ravishda harakatda o'z ifodasini topishi tufayli muallifni bayonchilikdan, hikoya etishdan forig' etadi. Dramaturg tomoshabinga hech narsani tushuntirmasdan, qahramonlarining qilmishlarini bayon qilmasdan voqealarga shunday harakat berib yuboradiki, shundan tomoshabinga hamma narsa

---

<sup>1</sup> Умуров Х.И. Адабиёт қоидалари. – Т.: Ўқитувчи, 2003.172-б.

ayon bo'lganday tuyiladi. Kelgusi voqealar oqimiga nazar tashlay biladi, ularni hayajon bilan kuzatadi. Ma'lumki, muallif dramada personaj tarjimai holini berishda juda cheklangan. Nasr va nazmda qahramonning kelib chiqishi, qayerda ishlashi, yashagani, qayerni bitirgani, ilgari nima ish qilganini, hozirda nimalar bilan shug'ullanayotganini, ota-onasining hayotini, qarindosh-urug'larini keng yoritib berishi mumkin. Dramada esa insonning qismatlarini, ichki olamlarida tez-tez yuz beradigan kechinma va tovlanishlarini muallif o'z tili bilan har tamonlama ochib berish imkoniyatiga ega emas. U o'z qahramoni bilan romanchiday har vaqt birga bo'lib, o'quvchilarga ularni qanday tushunish kerakligini aytib bera olmaydi. Shaxslarning sirli fikrlarini, xarakterlaridagi yashirin motivlarini, kuchli kechinmalarining sabablarini tushuntirishdan xolisdir. Shunday bo'lgandan keyin dramaturg o'z asarining syujetini shunday tuzishi, voqyealarini shunday ifoda etishi kerakki, ularda qahramonlar va vaziyatlar, xarakterli xususiyatlar, personajlarning zarur qirralari ochiq-oydin to'laligicha namoyon bo'lsin. Bulardan tashqari o'quvchi va tomoshabin muallif ayta olmagan, bo'lishi mumkin bo'lgan narsalarni ham fahmlab olsin.

XX asr o'zbek adabiyotining zabardast vakilaridan biri shoir va dramaturg, kinossenarist Usmon Azim o'ziga xos uslubi bilan yangilanayotgan badiiy tafakkurga salmoqli hissa qo'shib kelmoqda. Ijodining ilk davrida radiodramaturgiyada («Baxtli bo'laylik», «Hujjatli film uchun sujet», «Bahodir va Malika» pesalari) o'zini sinab ko'rgan shoir, keyingi yillarda drama yoza boshladi. Uning «Kunduzsiz kechalar» (1998), «Alpomishning qaytishi» (2000), «Bir qadam yo'l» (2002), «O'tgan zamon hangomalari» (2003), «Adibning umri» (2005) dramalari sahnalashtirilgan.

«Alpomishning qaytishi» uchun muallif 1999 yilning «Eng yaxshi dramaturgi» deb e'tirof etildi. Shoir kino san'atida ham o'z kuchini sinab ko'rmoqda. «Sevgi» (1998) filmining senariysini o'z hikoyasi asosida yozgan. Uning senariysi asosida ikki qismdan iborat «Alpomish» (2000) filmi suratga olindi. «Alpomish» dostonining kinotalqini uchun muallif Buxoroda o'tkazilgan kinofestivalda maxsus mukofot oldi. Binobarin, shu choqqacha 19 ta she'riy va

nasriy, dramatik asarlarini chop qilib, keng kitobxonlar mehr-u muhabbatiga sazovor bo'ldi. Shuni alohida e'tirof etish joizki, yangilanayotgan badiiy tafakkur miqyoslari kechagiga nisbatan anchayin jiddiy tafovutlanadi. Bu degani shuki, dramatik turga mansub asarlardagi ifoda yo'sinlari alohidaligi ko'zga tashlanadi. Bu hol yirik shoir, dramaturga Usmon Azim ijodini ham chetlab o'tgani yo'q albatta. Usmon Azim ijodi haqida gap ketganda avvalo, bir narsani alohida ta'kidlash joiz. U ham bo'lsa, uning o'ziga xos shafqatsiz, realistik uslubi borligini aytish mumkin. U har bir asarida inson qalbining intim muammolarini, yirik dardlarini kuylaydi. Bu kuylash o'zligini anglayotgan inson qalbining nozik tuyg'ularini tushunishga olib keladi. Albatta, mustaqillik davrida u to'lib-toshib ijod qildi. Asardan-asarga qarab o'sdi, shakllandi, yuksala oldi. Mustaqillik yillarida tinimsiz ijod qilish mobaynida drama janri imoniyatlarini ham kengaytirishga xizmat qilib kelmoqda. Adibning yaqindagina chop qilingan "Adibning umri" kitobida o'n bitta drama kiritilgan. O'zbekiston xalq shoiri Usmon Azim nafaqat nasrda, balki dramaturgiya yo'nalishida ham o'ziga xos qirralarni namoyon etgan ijodkorlardan biridir. Ushbu keltirilgan fikrga mos tarzda O'tkir Hoshimovning bir iborasini keltirib o'tsak, masala mohiyati chandon teranlashadi. Ijodkor "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" kitobida barcha qalamkashlarga namuna bo'ladigan fikrlarni shunday keltiradi: "Xudo ko'ngliga solmaguncha, haqiqiy yozuvchi qo'lga qalam olmaydi". Usmon Azim qariyb yarim asrlik ijodini kuzatgan ixlosmand bir narsani payqaydi. Ijodkor deyarli barcha asarlarida, avvalo, odamzodning buyukligi va ojizligi, muhabbati va nafrati, sadoqati va xiyonati, xullas, insonni diqqat markazida tutadi. Usmon Azimning "Bir qadam yo'l" ruhiy dramasida bir qarashda keskin tashqi dinamika, harakatlar, yelib-yugurishlar, yo'q. Voqea bir joyda, kasalxonaning torgina palatasida bo'lib o'tadi. Ammo, bu asarda dramatism yo'q, degani emas. Undagi ichki teranlik, ikki qutbning murosasiz ziddiyati tomoshabinni (yengil-yelpi emas, esli-hushli tomoshabinni) muttasil hayajonda ushlab turadi. Asardagi poklik va nopoklik, fidoiylilik va xudbinlik o'rtasidagi kurash nihoyatda jiddiy va keskin. Ijodkor asarlariga xos bo'lgan teran falsafa, ta'sirchan til mazkur dramada ham ko'rinadi.

Odatda, yozuvchi va dramaturg ijod yo'nalishiga qarab ma'lum "toifa"ga bo'linishi mumkin. Birov nuqul jiddiy asarlar yozadi, boshqa adib yoki dramaturg hajvga moyil. Bir yo'la o'quvchi yoki tomoshabinni "yig'latish"ga ham, "kuldirish"ga ham qodir qalamkashlar ko'p emas. Adabiyot tarixiga nazar tashlasak shunday ko'pqirrali ijodkorlarni ko'rish mumkin. Abdulla Qodiriy, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Said Ahmad, Erkin Vohidov asarlarida, aynan, shu xususiyatlarni ko'ramiz. Usmon Azim ham shu sirasiga mansub ijodkorlardan. Uning "Adibning umri", "Kunduzsiz kechalar", "Abdulla Qahhor", "Bir qadam yo'l", "Bozor", "Alpomishning qaytishi", "O'tgak zamon hangomalari", "Kuyovlikka nomzod", "Tohir va Zuhra", "Bor ekanu yo'q ekan" kabi dramalarida jiddiy fojiali holatlar tasvirini ko'ramiz. Ijodkorning yana bir asari – "Bir qadam yo'l" tragediyasi haqida bir qadar batafsilroq to'xtalishga to'g'ri keladi. Sho'ro adabiyotida tragediya yozish mumkin emas, degan tushuncha, aniqrog'i, "ichki buyruq" bor edi. Mustaqillik yaratib bergan cheksiz imkoniyatlar, erkin va faravon turmushmizda o'tgan davrdagi ba'zi voqealarni eslash, saboq chiqarib yashash lozim bo'ladi. Usmon Azimning dramalari haqida gap ketganda u avvalo, shaxs ruhiyatini, uning botiniy olamini tasvirlashga bo'lgan intilish ko'zga tashlanadi. Jamiyat va hayotdagi murosasiz muloqotlar ulardagi adolat va haqiqat uchun kurashlar tasviri kitobxonni o'ylashga undaydi.

"Usmon Azim dramalarida ijtimoiy dard salmog'i nihoyatda kuchli"<sup>2</sup>. Xususan, yuqorida zikr etilgan ilk pyesa – «Bir qadam yo'l»dan boshlab xuddi shunday zamonaviy mavzulardagi «Bozor», «Jazava» asarlarida yoki, ayniqsa, «Kunduzsiz kechalar», «Adibning umri», «Abdulla Qahhor» ijtimoiy-tarixiy dramalarida va hatto yengilroq hazmdagi «O'tgan zamon hangomalari», «Baxt qushi» komediyalarida ham dard darajasi zalvorli, dardmandlik miqyoslari keng. Bular qatoriga dramaturgning o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari asosidagi «Alpomishning qaytishi», «Tohir va Zuhra» asarlarini ham qo'yish mumkin. Albatta, ularda ijodkorning dardi turli voqea-hodisalar, turfa obrazlar misolida

---

<sup>2</sup> Азим У. Адибнинг умри. –Т: Шарк, 2012. 4-6.

turlicha namoyon bo'ladi. Ammo barcha asarlar negizidagi dard, tasvirdagi zamonu makonidan qat'i nazar, bugungi ijtimoiy voqyelikka munosabat bo'lib, aynan shu davr jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladigan hodisa o'laroq jaranglaydi, mohiyat kasb etadi.

«Bozor» pyesasi yaqin o'n yillar avval voqe bo'lgan ijtimoiy kayfiyat mahsuli.

Asardagi voqealar bir kunda, bir yerda bo'lib o'tadi. Bir vaqtlar obkom (oblast partiya komiteti)ning kattalaridan bo'lib, zamon o'zgargach, «yangi o'zbek»ka aylangan Abdurahmon Qosimov taniqli adib, rostgo'y, hamiyatli inson Erkin Ravshanning iqtisodiy nochorligidan foydalanib, o'zi haqida kitob yozishga ko'ndirgan, uni hashamatli dalahovlisiga olib kelib, bo'lgan-bo'lmagan «sarguzashtlar»ini o'z foydasiga moslab hikoya qilib beradi. Shu jarayonda bahs qo'zg'alib, kun davomi kechgan voqealar, sahnada paydo bo'ladigan personajlar o'sha bir-biri bilan tabiatan mutlaqo chog'isholmaydigan ikki xil tushuncha va dunyoqarashdagi shaxsning to'qnashuvlari mohiyatini namoyon etishga xizmat qiladi. Bu mohiyat shuki, buqalamunsifat moslashuvchan odamlar qo'li baland kelgan jamiyatda har qanday oliy tilaklar, yuksak maslak, haqiqat, halollik g'orat etiladi, keraksiz narsadek chetga uloqtiriladi. Nafs, ta'ma, manfaat, riyo sirasi tomir otadi.

Ana shu sirasiga suyanib Abdurahmon Qosimov o'zini cheksiz imkoniyat egasi deb biladi. Pul, davlat bo'lsa dunyoda sotilmaydigan narsa yo'q deb hisoblaydi. Va, shu yo'l bilan barcha o'ziga kerak odamlarni bo'ysundirishga intiladi. Qarangki, mashhur kinorejissyor, taniqli hofiz uning izmiga yuribdi-yu, yozuvchi Erkin Ravshan goh u, goh bu bo'lib turibdi. Abdurahmon Qosimov bilan Erkin Ravshan dialoglari, Mavlon va Mustafo haqiqatchi sahnalaridagi fikrlar yozuvchini «bozordagi mol» bo'lib qolishdan asranishga, yollanib, o'zi istamagan «kitobni yozish» niyatidan qaytishga da'vat qilsa, xotini Sayyora yana o'sha mardikorlikka majburlayveradi. Yo'q, uning maqsadi yomonlik yoki eri bilan yoqimsiz kechgan turmushi uchun alamzadaligini qondirish emas, balki chorasizlik, azbaroyi farzandi baxti uchun kuyinish, onalik haqqi... Erkin Ravshan

ayolini tushunadi, farzandi uchun o'z aqidalaridan bir oz chekinishga ham rozi. Ammo Mavlon misolida to'g'rilik, halollikka sodiq insonning samimiyatini tuygach, chekinish butun umr sig'ingan e'tiqodiga xiyonat ekanini anglaydi. Murosasiz tuyg'ular iskanjasida o'limni yagona chora deb topadi. Bu o'rtada uni sevgan go'zal san'atkor qiz Oydinning alamli e'tiroflari ham asosiy qahramonning fojiyaviy yo'l tutishiga turtki beradi.

...Sahna, albatta, tomoshaviylikni, harakatni taqozo etadi. «Bozor» pyesasida bu talablar to'la saqlangan deyish qiyin. Ammo ijtimoiy dramaning janr tabiati shundayki, bunda intellektuallikka, mushohadaga undaydigan jihatlar ustuvorlik qiladi. Xarakterlardan ko'ra qarashlar ziddiyati, fikrlar qarama-qarshiligi, keskin bahs-munozara konfliktni belgilaydi. O'quvchi qarama-qarshi dunyoqarashlar kurashida o'sha qarashlar tajassumiga aylangan obrazlarning fikrlar silsilasiga ergashadi. Muhimi, fikr dinamikasini saqlay bilishda. Ijtimoiy dramaning tomoshaviyligini ta'minlaydigan mazkur omil jahon dramaturgiyasining Kristofer Marlodan to ma'rifatparvarlik adabiyoti namunalarida, XX asrda esa L.Leonov, M.Shatrov, A.Gelman kabi rus dramaturglari ijodida yaqqol misollarini berdi. O'zbek dramaturgiyasida Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Asqad Muxtor, Mashrab Boboyevning ayrim pyesalarida qarashlar to'qnashuvining silsilaviyligi, dinamikasi kuzatiladi.

«Bozor» dramasida muallif asosan Abdurahmon Qosimov va Erkin Ravshan dialoglarida murosasiz, qarama-qarshi fikrlar davomiyligini saqlashga intiladi. Ayni chog'da, bu davomiylik shunchaki bir xil salmoq va zalvordagi fikrlar ketma-ketligi emas, balki aynan rivojlanishdagi, o'ziga xos dinamikadagi jarayon bo'lib, o'quvchi diqqatini ushlab turadi. Asar so'nggidagi fojiiy yakun dunyoqarashlar ziddligidagi munozaraning davomiyligi, dinamikasidir. Usmon Azimning iste'dod qirrasini yaqqolroq ko'ringan asosiy nuqta ham ana shu yerdadir.

Usmon Azim Milliy akademik drama teatrining adabiy emakdoshi sifatida shu truppa uchun va, albatta, voqelik talabi, ehtiyoji bilan qay bir ma'noda «adabiy uchlik» – «trilogiya» deb atasa bo'ladigan uch pyesa yozdi: Cho'lpon haqida «Kunduzsiz kechalar», Oybekka bag'ishlab «Adibning umri» va «Abdulla

Qahhor» nomli ijtimoiy-tarixiy-biografik asar. Ularni asosiy qahramonlari hayotiga oid voqeabandlik jihatidan izchil bir-birini davom ettiruvchi trilogiya deb bo'lmaydi, ammo boshqa talay xususiyatlariga ko'ra, bu uch asar bir-birini to'ldiradi. Avvalo, davr, pyesalarda aks etgan ijtimoiy voqelik bir – O'zbekistonda sho'rolar saltanati qurilib, hukmronlik qilgan yillardan qariyb ellik yili oralig'ida kechgan voqealar aks etadi uch asarda. Tabiiyki, davr bir ekan, ijtimoiy muhit, munosabatlar, turmush manzaralarida ham mushtaraklik bo'lishi aniq. Ikkinchidan, pyesalarning adabiy-janriy mansubligi ham bir xil – ijtimoiy-tarixiy-biografik dramalar. Uchinchidan, har uchala pyesaning qahramonlari ham real tarixiy shaxslar, qalamga olingan hodisalar ham ayni tarixiy voqelik. To'rtinchidan, pyesalar bosh qahramonlarining kasb-koridan tashqari, muallif tasvirlaganidek, ularning kechmishlari, dunyoqarashi, taqdirlari ham o'xshash. Cho'lpon ham, Oybek ham, Abdulla Qahhor ham davriga sig'magan, hurfikrliligi, millatparvarligi, haqparvarligi, murosasizligi uchun jabr ko'rgan, ta'qib va tazyiqlarga uchragan. Iste'dodi, obro'-e'tibori bois hasadgo'ylarning tuhmatlariga duchor bo'lgan. Shularga qaramay, irodasi bukilmagan, jismoniy azoblarga dosh berib, ruhan sinmagan. Boshqa katta-kichik holatlar, detallardagi umumiylikni sanamaganda ham, qayd etilgan mushtarakliklarga suyanib uch pyesani ijtimoiy-tarixiy-biografik trilogiya deb dadil aytishga asos yetarli. Darvoqe, garchi juda muhim bo'lmasa-da, mushtaraklikka oid oddiygina bir faktni ham eslatib ketish o'rinli. Har uch pyesa bosh tarixiy qahramonlar – uch adibning istiqlol sharofati bilan yurtimizda nishonlangan 100 yillik tavallud sanalari munosabati bilan ijtimoiy buyurtma sifatida yozilgan.

Uchlikning birinchisi – Cho'lpon qismati haqidagi "Kunduzsiz kechalar"ning ilk sahifalari Cho'lponning o'z uyida bir qancha do'stlari bilan davra qurib, suhbatlashayotganidan boshlanadi. Davriga xos oddiygina ma'rifiy suhbat asnosida Cho'lpon o'z oliy niyatlarini izhor etadi. «O'zligimiz boyishi va ulkanlashmog'i uchun, albatta, jahon madaniyati hamisha ko'z oldimizda turmog'i kerak. O'zbekning ruhi dunyo madaniyatining eng yuksaklardagi ohanglariga jo'r bo'lmog'i lozim». Anglanyaptiki, Cho'lpon kelajak faoliyati uchun o'ziga katta

rejalar mo'ljallab o'tiribdi. O'zbek adabiyoti va san'atini jahon miqyosiga olib chiqish, umuminsoniy qadriyatlarga qo'shilib ketadigan milliy ruhdagi asarlar yaratish orzusi bilan yonmoqda. Demak, shunday fikrdagi odam jahon adabiyoti, madaniyati nima ekanini yaxshi biladi, uning ma'naviy boyliklaridan bahramand, ayni chog'da, dunyo madaniyati yuksakliklariga jo'r bo'la oladigan asarlar yaratmoqqa ham yurak qo'ri, aqliy salohiyati yetadi. Haqiqatan ham, adabiy qahramon emas, real hayotdagi Abdulhamid Cho'lpon Sharqu G'arb madaniyatini o'z zamondoshlariga nisbatan anchagina tugal o'rgangan, bilgan va ijodiy o'zlashtira olgan edi. Cho'lpon o'z bilimi, ijodi bilan bedodliklarga qarshi tura olishi, elu yurti ko'zini ochishi mumkin edi. Xalqini jaholatga, istibdodga qarshi oyoqlantira olishi, o'zlikka qaytarib, ongu qalblarga g'urur, isyon ruhini singdirishi mumkin edi. Shuning uchun uni jamiyatdan ihota etmoqqa, yolg'izlantirmoqqa urinadilar. Cho'lponning o'zi ham pyesaning beshinchi ko'rinishida barcha qo'lyozmalarini gulxanga yoqayotgan bir alpozda namoyon bo'ladi. Chunki u biladi: yovuzlik saltanati hukmron ekan, uning asarlari bekor, ya'ni, chop etilmaydi, tarqatilmaydi, o'zi kabi ular-da faoliyatsizlikka mahkum. «Qo'lyozmalar yonadi! Shunday yonadiki!.. Bu dunyoning adadsiz yong'inlari qanchadan-qancha qo'lyozmalarni yamlab yuborgan... Bu Turkiston tuprog'ida qanday buyuk daholar yuragiyu aql qo'ri qorishgan qo'lyozmalarning kullari sovrilib yotibdi... Yovuz kuch borki, birinchi galda, aqlli va yurakli odamlarga hujum qiladi. Chunki aql topgan mantiq yurak qo'ri bilan toblansa, uni yengib bo'lmasligini yovuzlik yaxshi tushunadi... Kitoblarning baxtiqaroligi shu sababdan...» Xo'p, Cho'lpon-ku bilimlari, tafakkuri faoliyatsizlikka mahkumligini bilib, qo'lyozmalarini yoqibdi, Oybek va Abdulla Qahhorning shaxs va ijodkor sifatidagi fojealari qanday kechdi?

Oybek ham, Abdulla Qahhor ham zohiran qarashda o'z davrining adiblari o'laroq, shu davr g'oyalarini qabul qildilar. Sho'ro tuzumiga dildan ishonib, unga xizmat qildilar. O'sha adiblarning hayoti va ijodidan boxabar kitobxon Usmon Azim pyesalarini o'qigach, shubhaga borishi va savollar berishi aniq. Dramaturgni biryoqlamalikda, tarix haqiqatini buzganlikda ayblashi ham mumkin. Hamonki,

maqsad o'zbekning XX asrdagi buyuklari haqida ma'rifiy asar yaratib, bugungi avlodlarni shunday zotlar o'tganidan va ularning hayoti oson kechmaganidan, sabr, matonat, ezgulikka ishonch, intilish tufayli xalqning yorug' xotirasiga munosib ekanliklaridan naql qilish ekan, ayrim nokerak tafsilotlardan ko'z yumish, ulug'larimiz haqida oydin tasavvur uyg'otadigan tarixiy dalillarnigina badiiylashtirishga urinish noto'g'ri yo'l emas. Ayniqsa, xalqimizda Oybek haqidagi nurli taassurotni mustahkamlash, haqiqatan ham farishtamisol pok, boladay sodda, beg'ubor va, ayni chog'da, tafakkur-hofizasi, bilim dunyosi nihoyatda cho'ng, tuyg'ulari inja bir zotni «hech kimdan kam emasmiz» degan aqida bilan ulg'ayayotgan yoshlar dunyosida shunday akslantirish e'tirofga munosib. Shu bois dramaturg «Adibning umri»da ham, «Abdulla Qahhor» pyesasida ham har ikki shaxsni qariyb qirq yillik vaqt silsilalarida, qatag'on moshinasi avji ishga tushgan mash'um pallalarda sinovlardan o'tkazish orqali o'sha ezgu ijodiy maqsadni amalga oshirishga urinadi. Maqsadiga qay bir darajada erishadi ham. O'quvchi Oybek va Abdulla Qahhor haqida aynan muallifning ijodiy niyatiga va yuz yillik tavallud tantanalariga muvofiq ideallashtirilgan taassurotni oladi. Ma'rifati oshadi, tasavvurlari kengayadi, albatta. Biroq bunday ma'rifiy-tafsiliy yo'l chinakam dramaturgik miqyoslar nuqtai nazaridan olib qaraganda, katta shoir nomiga bir oz soya solib qo'ymasmikan deb, ikkilanib qoladi kishi. Qolaversa, muallif qo'l ostida zamonasining Hamletligiga da'vogar bo'la oladigan mavzu-material bor edi."Hamletdan ko'p narsa o'rgansa bo'ladi"<sup>3</sup> Bunda bo'ysunmagan ruh, riyokor jamiyat, xiyonatkor olomon bor edi. Klavdiydek muqaddas tuyg'ulardan mahrum zo'ravon, Poloniydek ikkiyuzlamachi, Rozenkrans, Gildensterndek sotqin «do'stlar» saltanati hukm surgan yaqin o'tmish tajribasi bor edi. Yuqoriroqda keltirilgan she'rdagi kabi, «Doniyoning nimaligini anglash «gap — Doniyoda» ekanini bilib, zamona «Hamletini hikoya qilmoqqa» intilish zarur edi. Shundagina, o'quvchi-kitobxon ham «Hamletlikda mangu qolish – baxt» ekanini his etardi, anglardi, go'zal va jozib majozni tushunardi.

---

<sup>3</sup> И. Хаққул.Шекспир машъали.-Т.: «Фан» 2007 й. 13-б

Usmon Azimning dramatik trilogiyasi shu usul va yo'ldagi dastlabki qadam emas, albatta. O'zbek milliy dramaturgiyasida ijtimoiy-tarixiy dramaning etaloni bor, bu – Maqsud Shayxzodaning to'hanuz benazir «Mirzo Ulug'bek» tragediyasi. Ozod domla mazkur asarni shekspirona o'lchovlarda tahlil va ta'rif etishni vasiyat qilgan edi. Kamina bu fikrni yanada aniqlashtirib, «Mirzo Ulug'bek»ni asosan «Hamlet» bilan qiyosiy-tipologik yo'sinda o'rganish tarafdoriman. Gap shundaki, tragediyada – xoh u qahramonlar fe'li-atvori, xoh tasvirlanayotgan voqelik, aniq vaziyat, dialog va monologlardagi munosabat, yuksak erkin poetik tilda ifodasini topgan kuchli mantiq hamda harakatdagi fikr-tafakkur oqimi kabi adabiy-g'oyaviy unsurlarda mujassam bo'ladigan tragik pafos bo'lmog'i shart. Fojiaaviylik zalvorini kitobxon yo tomoshabinga his qildiradigan eng muhim unsur ana shu – fojeiy pafosdir.

«Adibning umri»da ham, «Abdulla Qahhor» pyesasida ham fojeiy pafos uchun xamirturush bor. Bu, avvalo, har ikki asar bosh qahramonlarining oddiy andozalarga sig'avermaydigan «men»i va hayotida yuz bergan larzalar, larzali vaziyatlar, haqsizliklar, cheklashlar, beayov hayotiy va xayoliy ziddiyatlar, to'qnashuvlar. Xususan, Oybekni dor ostiga olib kelayotgan holatlar yakuni uning tuzalmas xastalikka yo'liqib, so'zlash, yozish imkoniyatidan mahrum bo'lishi bilan yechim topadi. Abdulla Qahhor esa, murossasizligi uchun Moskovning oddiygina kasalxonasida, mash'um oltinchi palatada tahqiru xo'rliklar ichra jismoniy va ruhiy azoblarda o'limga duchor etiladi. Bilgich –ogohlarni faoliyatsizlikka mahkum etish sho'ro tuzumi siyosati o'laroq, umumjamiyat miqyosidagi fojea edi. Bu qalamunlikning ildiz otishi va ommaviy hodisaga – me'yorga aylanishi jamiyat tanazzulining yana bir fojeiy ko'rinishi edi. Oybek, Abdulla Qahhor kabi o'zini tanigan shaxslar uchun haqiqatni aytmaslik, adolatsizliklarga beparvo bo'lish, insoniylikka, axloqiy aqidalarga zid ish tutish va, hatto, bundan-da o'tib, sotqinlik qilish yanada og'irroq fojea edi. Ana shunday ko'lamli fojea vaziyat va holatlar, fojeiy qahramonlar bo'lgani holda fojeaviylik pafosining avj pardalarga ko'tarila olmasligi ajablanarli, albatta.

Hamlet «Doniyo – qamoq» deya hayqirganida, hech kim nima uchun “Bu yigit otasining o’limi, onasining xiyonatidan alam-otashda, Alining alamini Validan olyapti yoki «Burgaga achchiq qilib ko’rpa kuydiryapti?» deya savol qo’ymaydi «Xamlet qalbining larzaga kelishi uning tafakkurini yoritadi. Shaxsiy iztiroblar davrning taloto’plarini anglash yo’lidagi dastlabki bosqichdir»<sup>1</sup>. Tahlilga tortilgan pyesalarda va, hatto, aytish mumkinki, ma’lum darajada butun trilogiyada pafos xususiy doiradan chiqolmaydi, umumijtimoiy orbitaga ko’tarilmaydi. Fojea qahramonning yoki uning oilasi ko’rguliklarining dramasidek taassurot qoldiradi.

To’g’ri, e’tiroz tug’ilishi mumkin: «Kunduzsiz kechalar»da Fitrat, Fayzulla Xo’jayev, Botu va boshqalarning yoki «Adibning umri»da Abdulla Qodiriy, Saidnosir Mirjalilov, Cho’lpon, «Abdulla Qahhor»da Mirkarim Osim, Shuhrat, Said Ahmad va boshqa real tarixiy shaxslar orqali hamda talaygina to’qima personajlar (ayniqsa, «Abdulla Qahhor»da palatadoshlar)ning qatag’on qilinishi, o’ldirilishi, ta’qibu tazyiqlarga uchrashi aytiladi, goho ko’rsatiladi ham. Ammo bu hali xususiy voqea-tafsilotlarni umumijtimoiy hodisa darajasida qabul qilish, ijtimoiy og’riq tuyush uchun yetarli emas. Bu fahmli ijodkorning zohiran adabiy sxemaga moslashishi, tafakkurdagi andozalarga ergashishi natijasidir. Rost-da, Cho’lpon ham, Oybek-u Abdulla Qahhor va boshqa qatag’on-u tazyiqqa uchragan ijodkorlar ham totalitar davr tufayli shu ahvolga tushdilar. Bu barchaga ayon haqiqat. Biroq shu haqiqatni qandaydir voqeiy tafsilot, eslatma va yo biror personajning kitobiy so’zlari, monolog-dialoglari orasiga qistirib, ifodalab qo’yish mumkin, deb yondashadigan bo’lsak, o’sha yerda sxema, sayozlik, beta’sirlik bo’y ko’rsataveradi. Xo’sh, nima qilmoq kerak? Nazarimda, bu taxlit asarlarda umumnazariy yo’l bitta – shekspirona, aniqrog’i, hamletona yo’l. Shaxsiy kechinmalar tufayli tafakkurning uyg’onishi, uyg’oq tafakkur esa oddiydan murakkabga (agar shunga asos bersa, zero, qatag’onlar davri va shaxslari bunga to’la imkon berar edi) bosqichma-bosqich anglash, badiiy idrok etish orqali o’sib borishi, pirovardida, umumijtimoiy badiiy-falsafiy umumlashma darajasiga ko’tarilmog’idir. Voqyelik, shaxs va jamiyat munosabatlari chiroyli, obrazli

---

<sup>1</sup> Г.Н.Бояжиев. “Вечно прекрасный театр эпохи Возрождения” М. Искусство. 1973г. 424-стр.

iboralarga o'ralgan qaydlarga aylanib qolmasligi, qalbda, ongda va atrof muhitda kechayotgan jarayonlar tafakkur elaklaridan o'tib, badiiy tadqiqot darajasidagi tahlil, ifoda va dinamikasini kashf etishi lozim. Bunda biror lavha, tafsilot, detal, personaj, shartli-shartsiz unsur asar tarkibiga aniq idrok etilmasdan kiritilmasligi kerak. Va, ularning barchasi vazifador bo'lishi hamda asosiy g'oyaga yo'naltirilishi shart, albatta. Bu, eng avvalo, aynan mumtoz drama – klassik tragediyaning talabi. Buyuk Shayxzoda «Mirzo Ulug'bek» misolida buning uddasidan chiqa olgan edi. Cho'lpon, Oybek, Abdulla Qahhor kabi shaxslar esa, mubolag'asiz, shunday asarlarning qahramonlari bo'lishga loyiqdirlar. Ijodiy qiynoqni sharaf deb bilgan shoirimiz Usmon Azim ham bunga shubha qilmasa kerak.

Usmon Azimning dramaturgiyadagi ilk tajribasi «Bir qadam yo'l» bo'ldi. Oldinga ketib aytay (buning uchun Usmon Azim mendan ranjimas) uning shu kungacha yozgan o'ndan ortiq pyesalari shoirligichalik emas. Ammo, yana bir haqiqat shuki, ular ham iste'dodli ijodkor qalamidan to'kilgan bitiklar.

Bir qadam yo'l – umr yo'li, tug'ilmoq va o'lmoq orasi. Insonning ham qavmi qalbidan joy olmog'i uchun ham uning istiqboliga tashlangan bir qadam kifoya. Ana shu bir qadam yo'lni bosib, umr poyoniga yetib qolgan chol, ko'ringki, bir qadam naridagi Samarqandni ko'rmabdi. Umr bo'yi orzu qilibdi, intilibdi-yu, ammo sira fursat topmabdi. Mana, endi niyatini amalga oshirmoq ilinjida. Shahardan kelgan boyvachcha o'g'il Shokir otasini muazzam shahar tomoshasiga olib bormoqchi. Lekin niyat amalga oshguncha o'tadigan ikki-uch kunlik fursat shunchalar tig'iz, shunchalar sertashvishki, oxir-oqibat yana safarni keyinroqqa surishga to'g'ri kelib qoladi. Shu kunlar adog'ida esa paymonasi to'lib yurgan cholning armoni ushalmay, umri ham adog'iga yetadi...

Usmon Azimning to'qsoninchi yillarda yozilgan «Bir qadam yo'l» nomli ilk pyesasining fabulasi ana shundan iborat. Ammo shu bir necha satrda bayonini topgan fabula tarkibi ziddiyatlarga, ehtirolarga, poetik monolog va dialoglarga nihoyatda boy. Muhimi, dramaturgning ayni o'zi havo olib turgan muhit haqidagi fikrlari, mushohadalari, aytadigan dardu iztiroblari ko'p. Shunchalar ko'pki, gohi

ularning orasida qolib, bosh maqsaddan chalg'ib ham ketishingiz mumkin. Bular cholning kenja o'g'li Qosim taqdiriga ayanchli muhr bosgan Afg'oniston voqealari, katta o'g'il Jo'ra bilan xotini Saodatning ishu yumushlar girdobiga g'arq bo'layozgan mehru muhabbati, o'rtancha o'g'il Shokirning narkomafiya dunyosidagi xatarli hayotiyu xotini Beg'amning adoqsiz g'amga ko'milgan azobli turmushi, xorijlik Muhammad Chagananing Vatan sog'inchi, Salimaning Qosimga bog'langan armonli sevgi izhorlari... va hokazo, va hokazo. Bu chalkash, murakkab taqdiralar aro yana voqea turmush, jamiyat hayoti va inson tabiati bilan bog'liq qanchadan-qancha dardlar, muammolar, ishoralar. Pyesaning bosh qahramoni – cholning «ichdagi dard so'zga aylanavermas ekan» degan fikrini ham e'tiborga oladigan bo'lsak, asarni boshdan-oxir inson dardlari, armonlari haqida deya ta'riflash mumkin.

“Dard – har qanday badiiy ijodning qoni”<sup>4</sup>. Inson tanasida qon aylanmas ekan, u yashamaydi. Badiiy asar tarkibida ham qon yanglig' dard bo'lmasa, bunday asar jondan, jonlilikdan mahrum. Demak, haqiqiy badiiy asar dardsiz bo'lmaydi. Ammo uning namoyon bo'lishi har xil. Binobarin, salmog'i, darajasi ham turfa xildir. Tusi, tabiati, ahamiyati ham turlicha. Badiiy ijodda dard garchi xususiy holatda, individuallashtirilgan voqyea-hodisalar, obrazlar tasviri orqali namoyon bo'lsa-da, u hamisha ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Chunki badiiy asar ommalashtirilgan ekan, demak, undagi dard ham ko'pchilikning qalbida aks-sado bermog'i kerak bo'ladi. Ayni chog'da, qayd etish joizki, dard namoyon bo'lishidan qat'i nazar, xususiy holatga taalluqli bo'lishi yoki ijtimoiy voqelik bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Dramada ziddiyatli o'rinlar asar hujayralari – komponentlariga sochilib ketgan. Ayniqsa, Jo'ra va Shokir o'rtasida kechgan muloqot o'ta xarakterli xususiyatga egaligi bilan kitobxon diqqatini tezda tortadi:

“Shokir. Hech kimdan qo'rqmaysizmi?

---

<sup>4</sup> Азим У. Адибнинг умри. –Т: Шарқ, 2012. 4-б.

Jo'ra. Jamoa xo'jaligimizni shu yilning o'zida yetti marta tekshirtirishdi. Menga yopishtirishga bir chang topisholmadi. Umidvor bo'lib likillab ko'rishdi. Bir tiyin bermadim. Mening prinspim bor. Haromxo'rga bir tiyin ham ber-mayman!

Shokir. O'zingiz ham bir tiyin yemaysiz...

Jo'ra. Yemayman!

Shokir. Bu tartibda ishlashingizda jamoa xo'jaligingizdagi odamlar qochib ketishgandir?

Jo'ra. Xo'jalik ishida biror narsani ayadingmi – ishtonsiz qolasan... beradiganini berdirib, yeydiganini yedirib, jamoa uchun kerakli narsani yerning ostidan bo'lsa ham toptirtirib kelaman. (Kulib) tekshiruvchilar ham biror narsa olib kelsin jamoa xo'jalikka – o'xshanda ular ham quruq qolmaydi.

Shokir. O'zingiz ham sal yashasangiz bo'larmidi...

Jo'ra. Menga maosh belgilangan... Keyin, uka, hammaning o'zining qismati bor. Mana, sen yigirma yil yo'q bo'lib ketding. Qarindosh-urug'dan kechib, o'zingga bir yo'l izlagandirsan-da! Bilishimcha, topibsan ham! Moskovda bir uying bor, aytishingcha, xorijda ham hovling bor emish. Toshkentga kelib-ketarga bir uy qilib qo'yibsan...

Shokir. Aka, men bu qishloqdan “boy bo'lmasam, qaytmayman” deb chiqib ketganman. Boy bo'ldim – qaytib keldim. Bechorachilikning qamoqdan farqi yo'q. Yagona ozodlik bor – pul. Men pulga qullikka yollanganlarni hurmat qilmayman. Pul – insonning xizmatkori bo'lmog'i kerak... Kechirasizu, aka, sizda ana shu xizmatkorlardan juda kamchil. Men xo'jaligingizdagi pullarni aytayotganim yo'q. U – ko'pniki. O'zingizning shaxsiy xizmatkorlaringiz bo'lishi shart. Ayniqsa, Amerikadan kelgan ko'k xizmatkorlar ko'p bo'lsa, undan ham yaxshi.

Jo'ra. Men eskicha odamman. Har holda xalqqa, Vatanga xizmat qilish kerak deb o'ylayman. Bir odamning umri esa, ochmi, to'qmi o'tadi. Ko'pchilik tirikchilik tashvishida izg'igan hozirgi sharoitda esa, kekirib yashash... Uyat!

Shokir. Kommunizmni ilk bor sizga o'xshagan uyatchanlar orzu qilganlar, aka! Oqibati nima bo'lganini ko'rdingiz. Avval kekirganlarni otishdi, so'ng “otma”

deganlarni yo'q qilishdi, keyin bir-birlarini qamashdi... Ortiqcha farishta roliga judayam kirishib ketish – axmoqchilikning o'zi! Siz farishtasiz, ammo yangam cho'riligingizni qilyapti, farzandlaringiz qiynalyapti... O'zi hayotni tushunmaydigan befahm odamsiz, aka! Hozir birlamchi sarmoya yig'ish davri kelyapti. Erta-indin siz yaratgan umumxalq mulkni puldorlar tagi-tugi bilan sotib olib qo'yadi. Yurasiz keyin bir puldorning qoshu qovog'iga qarab... Siz-ku, mayli, ammo farzandlaringiz ham otasining bugungi farishtaligi evaziga birovning xizmatini qilib o'tadilar. Siz tufayli, sizning “xalq” degan axmoqona xomxayollaringiz tufayli ular qaysidir bir boyvachchaga xizmatkor bo'lishadi! Tushuning bugun kim boy bo'lishga ulgurib qolsa, marra o'shaniki...

Jo'ra. Bugungi o'zgarishlar birovni boy, birovni kambag'al qilish uchun bo'layotganiga meni hech qachon ishontirolmaysan. Islohotlarning manfaati bir kunmas, bir kun barchaga barobar tegadi. Mana bu yil – Inson manfaatlari yili deb e'lon qilinganligidan o'zing xabardorsan...

Shokir. Aka, siz va sizga o'xshaganlar manfaat ham ko'rmasdan o'lib ketasizlar. Ko'zingizni kattaroq ochib qarang! Kattalar ham, kichikroq ukag'ar ham yo'lini qilib, molu davlat orttirish bilan ovora. Qanchasi xorijdagi banklariga aqchalarini joylab qo'ygani menga ma'lum! Xalqni kim o'ylayapti? Tepada ham, pastda ham ikki-uch Don Kixotning peshanasiga “haqu-haq” deb tirishgan, xolos! Aka! Bu mamlakatning idroalari pora terib oladigan moslamaga o'xshab qolgan...”<sup>5</sup>.

Keltirilgan parchada ko'rinadiki, aka-uka Jo'ra va Shokir o'rtalarida kechgan muloqot, bir necha jihatlarni o'zida mujassam etganligida qabarib ko'rinadi. Bular, birinchidan, yurt ko'rgan, tadbirkor va uddaburon zamon kishisi Shokir har qanday vaziyatda o'z manfaatini birinchi o'rniga qo'yadi. U har bir narsani, do'stlik va diyonatni pul bilan o'lchab o'rgangan. Qalbidagi kechayotgan og'riq ham aslida – pulning dardida yonishi. U jamiyatdagi uzil-kesil o'zgarishlarni, evrilishlarni o'z dunyoqarashida baholashga odatlangan. Lekin hayotda pul, boylik, obro'siz ham yaxshi yashash mumkinligini his etmaydi.

---

<sup>5</sup> Азим У. Адибнинг умри. –Т.: Чўлпон нашриёти. 2011. 296-297 бетлар.

Negaki, yoshlikdan puldor bo'lishga, boy bo'lishni niyat qilgani bois, ichidagi istaklarining ketidan quvishga mahkum. Ikkinchidan, Jo'ra xarakterida real mohiyat kasb etadigan odamiylik, insonparvarlik, vatanparvarlik tushunchalari uning eng to'g'ri xulosa qilishiga zamin hozirlaydi. Dramadagi qarama-qarshi ziddiyatlar ham aslida dunyoning so'nggi yuz yilligida nechog'li o'zgarib ketganligini bir oila timsolida tasvirlaydi. Dramadagi ijodkor badiiy niyati ham jamiyat hayotidagi o'zgarishlarning inson ruhiyatiga bevosita va bilvosita ta'sirini ifoda etishdan iboratligi qabarib ko'rinadi. Aytish joizki, dunyoning o'zgarishi inson ruhiyatidagi azim qadriyatlarning yemrilishiga olib kelishi ham drama da jonli bo'yoqlarda aks etgan. Binobarin, Jo'raning maqsad-intilishlari hamisha ro'yob bo'lmagan orzular bag'rida qoladi. Lekin atrof-muhitning unga yetgazgan zulmi ham shu tarzda reallashadi. Shokir esa o'ziga ishongan, ishonish bilan ko'proq bino qo'ygan personaj bo'lib gavdalanadi.

Shunisi muhimki, dramatik asarlar hayotning qaynoq ichkarisidagi voqealarni tasvirlashni bosh maqsad qilib qo'yadi. Negaki, sahna bu – hayotning o'zi bo'lsa, unda kechadigan voqea-hodisalar inson intilishlarining real manzarasidir. Bir so'z bilan aytganda, dramatik asarlar shaxs va shaxsiyat masalalarini turfa xil rakurslarda talqin etganligida qabarib ko'rinadi. U.Azim tanlagan ifoda yo'sini – uslub shiddati, shafqatsiz reallik bilan belgilanadi. Chunki she'riyatda alohida mavqe kasb etgan yangiliklarda u bir necha shamoyilni birlashtirgandi. Uslub bu – odam ekan, uni ifoda etayotgan ijodkor ham yakkaqalb tuyg'ularini subyektivlikdan – obyektivlik tomon siljitishga harakat qiladi. Shunisi muhimki, mangu savolga mangu javob axtargan odamzod fe'l-atvori jamiyat hayotini yangilashga urinadiganlar bor, urinmaydiganlar, loqaydlar bor. Pul-boylik, manfaat va obro' izlashga tutingan Shokir kabi kishilar jamiyatdan, xalqdan o'z qalbining manfaatini ustun qo'yadi. Boshqacha aytganda, ikki xil toifaga bo'lingan dunyoning qonuniyati yaxshi va ezgulikni kuylovchilarga qaraganda, yomonlar amali ustunroq kelishini kuzatish mumkin. Dunyodagi urush va nizolar ham qarama-qarshi tomonlarning o'zaro aqlsiz yoki aqlli murosasizligidan kelib chiqqan.

Ma'lumki, Usmon Azimning o'ziga xos uslubi ehtimol, she'riyatda nom qozonib, unda yuksak va mustahkam mavqeni egallab ulgurgan shoirning dramaga qo'l urishi kim uchundir kutilmagan hol bo'lgandir, biroq kaminaga aslo bunday tuyulmagandi. Zero, shoir teatr san'atiga ayrica muhabbati borligini, esingizda bo'lsa, "Teatr" turkumidayoq izhor qilib qo'ygan. Boz ustiga, uning o'nlab she'rlarida dramatik unsurlar salmoqli, ularda mo'jazgina dramatik holatning jonli va xuddi dramadagi kabi go'yo betaraf tasviri lirik kechinmani ifodalash vositasiga aylandi. Yana bir tomoni, baxshiyona yo'lidagi o'ye'rlarida ham dramaga yaqinlik bor: ular sahna asarini eslatadi, tasavvurimizdagi sahnada jonlanadi go'yo... Ya'niki, teatrga allaqachonlar ishq tushgan shoirning... muhimi, bu ishq ilk sevgi maqomida mudom sog'intiradi va shu bois she'rlarida bot-bot tilga olinib, bo'y ko'rsatib turadi. Xullas, "Bir qadam yo'l" shu muhabbatning birinchi mevasi. Olgan taassurotimning kuchililigi, bir tomoni shunda bo'lsa ajabmas.

Dramadagi yana bir muhim jihat kishini o'ylashga undaydi. Shoir asariga "Bir qadam yo'l" deb nom berar ekan, kishi diqqatini bir jihat o'ziga tortadi. Unda Cholning bir umr Samarqand shahrini ko'rolmay, borolmay, diydoriga to'yolmay o'tib ketishida qabarib ko'rinadi. Shiddat bilan o'zgarayotgan dunyoning tashvishlaridan bosh ololmay qolgan Cholning qobil bolalari ham o'z ishlari ila band. Negaki, Chol har safar Samarqandga boraman deb turganida bir ish chiqib qolaveradi. Cholni bir amallab ishontirgan o'g'illar ham biror bahona qila boshlaydi. Oiladagi to'kinlik va farovonlik bo'lgani bilan o'z tug'ilib o'sgan ona yurtining jamolini ko'rishga harchand shoshilmasin, ammo ular bu ishni sidqidildan bajarishga qodir emas. Boshqacha aytganda, ular o'zlariga muhim deb bilgan vazifa deb bilmaydi. Cholning qalbida, yuragida yashayotgan Samarqandga bo'lgan muhabbati bir umr uni ta'qib etib yashaydi. Dramadagi keskin ziddiyat va konflikt ikki aka ukaning ko'rishuvida realashadi. Shoir buni yorqin bo'yoqlarda tasvirlar ekan, tabiatan qanday bo'lsa, shunday ko'rsatishni maqsad qilib qo'ygani ayonlashadi. Buni quyidagi keltirilgan parchada ham ko'rish mumkin:

Saodat. Kim bilsin!.. Shu yerga kelin bo'lib tushibmanki, bir zum tinmayman. Non yopgan ham – men, kir yuvgan – men, ovqat qilgan ham – men,

mehmon kutgan ham men. Itda tinim bor, menda tinim yo'q. Ana, o'nta qoramolni, yigirmata qo'yni birdoqiga boqyapman. Kim uchun? Rais holiga birovdan kam bo'lmasin deyman. Bu kishi bo'lsa, mendan birgadir-mirgadir-larga aytib keltirganim yemish-pemishga ham, mendan yashirin idoralari bilan hisob-kitob qilar ekanlar. Bilmadim, farishta bo'lib osmonga chiqib ketmoqchilarmi? Men esa, bu uyning cho'riligini qilaverib, qo'llarim tarasha bo'lib ketgan. Qarang! Kechalari suyaklarim zirqiraydi... Qismatim shuncha sho'r bo'ladimi? Do'zaxda yashayotgandayman... (Yana to'liqib, gapdan to'xtaydi).

Beg'am. Opajon, hammaning bu dunyoda o'z do'zaxi bor. Tavba qiling! Xudo deng!

Saodat. Qaynatamga qarab turib, o'ylasman, xotin boshim bilan a'molim shu kishning taqdiriga o'xshadi. Umr bo'yi "Samarqand, Samarqand" deb orzu qilib o'tdilar. Samarqand dunyoning u chetidagi shahar emas-ku! Bir qadam yo'l... tashvishlardan qutulib, hozirgacha Samarqandga borganlari yo'q. Toblari qochgandan buyon-ku, og'izlaridan tushmaydi. Ko'rmagan Samarqandlarini ba'zan menga hikoya qilib o'ltiradilar. Kimsan, falonchilarning otasi bo'lsalar...

Beg'am. Xudo xohlasa, endi ko'radilar... Shokirjon qaynag'angiz ataylab kelganlar. Ovga chiqib qaytib kelganlaridan keyin, bobomni olib Samarqandga boramiz. To'yganlaricha tomosha qiladilar. Shokirjon aytganini bajaradigan odam, opajon. Keyin biz Toshkentga o'tib ketamiz. Bobom xohlasalar, biz bilan ketadilar, istamasalar, mashinada bir zumda qaytarib tashlab ketamiz. Hozirgi mashinalar oldida, Samarqand, aytganingizday, bir qadam yo'l...<sup>6</sup>.

Dramaning ikkinchi keskin vaziyati opa-singil orasida bo'lib o'tadi. Mehnatdan qochmaydigan Saodatning qalbini timdalayotgan og'riq ham zamon bilan yashashga, zamona kishisi bo'lishga intilayotganida qabarib ko'rinadi. Haqiqatdan ham, odamzod fe'li tushuniksiz. Ko'nglidan istak-iroda emas, aqalga bo'ysunadi oqibatda ko'ngil va aql ziddiyati keltirib chiqargan muammolar girdobida esankirab qoladi. Muallif bu o'rinda Beg'amning beg'amligini, Saodatning jonkuyarligini real tasvirlaydi. Aslida, ularni birlashtirib turgan yagona

---

<sup>6</sup> Ўша асар. – 301-302 бетлар.

g'oya ham – Cholning Samarqandi ko'rishga bo'lgan orzulari asosida quriladi. Lekin bitta Samarqandi ko'rish orzusi oiladagi barcha ko'ngilsizliklarning asl sababi nimada ekanligini ko'rsatish uchun muhim vazifa sanaladi. Demak, dramaturgning mahorati shundaki, bir voqeya ichda bir necha qoqyeani tasvirlashdan iborat ekanligi yanada oydinlashadi.

Usmon Azim dramalaridagi yetakchi xususiyat asar tili va ifoda yo'sinining aniq va soddaligida qabarib ko'rinadi. Unda inson ruhiyatining nozik sezimlari ifoda etiladi. Binobarin, ularning aksariyatida o'zini anglashga bo'lgan yorqin va jonli bo'yoqlarda ifoda qilingan. Dramaning haqqoniyligini ta'minlagan jihatlar ham aslida mana shulardir. Chunki borliqdagi voqea-hodisalar inson munosabatining ta'sirida shakllanadi. “Bir qadam yo'l”da umr bo'yi Samarqandni ko'rnishni orzu qilgan, intilib yashagan Cholning istaklarini o'g'illari ro'yobga chiqarishga ich-ichidan kirishmaydi. Shunchaki bir istak deb qaraydi. O'zlarining shaxsiy muammolari bilan andarmon bo'lib, otasining xohishiga quloq tutishni istashmvydi. Jo'ra ham, Shokir ham kelin va qizlari ham bularni tilida aytgani bilan dilida borishga chindan ham kirishmaydi. Balki yuzaki litifot va yuzaki harakatni ko'rastish orqali ularning jamiyat hayotidagi o'rnini tasvirlashni niyat qilgandir dramaturg. Nima bo'lgan taqdirda ham, Usmon Azim o'zi oldiga qo'ygan maqsadni yuksak muhabbat va mahorat bilan tasvirlay olganligi ayonlashadi. Shunday ekan, dramadan olgan ma'naviy zavq ham, o'zgarayotgan dunyoda inson ruhoniyyatini kuzatish, ularning harakatlaridan muayyan xulosalar chiqarib yashash har bir inson uchun ibrat namunasi bo'lib xizmat qiladi.

Usmon Azim drama yozar ekan, voqealarni ichkaridan turib baholashni maqsad qiladi. Chunki icharidan baholangan hodisa real mohiyat kasb etadi. Shaxs ruhiyatini tasvirlash Usmon Azim uslubiga xos jihat. Unda jamiyat hayotining muhim tomonlari ifoda qilingan. Jamiyatdagi o'zgarishu olg'a siljishlar oqibatida dunyoning ko'rki sanalgan Samarqandni tomosha qilish inson istaklarining bir bo'g'inini bildiradi. Lekin istakka real hayotda emas, xayolda va faqat tasavvur orqaligina erishgan Chol qismati uning armonli hayoti kitobxonni o'ylashga undaydi. “Bir qadam yo'l” ramziy ma'noni ham o'zida tashiydi. Inson bu dunyoga

kelar ekan, bo'isb o'tiladigan yo'l haqiqatdan ham – bir qadamdir. Unga har kim o'zicha ma'no yuklashga urinadi. Maslan, Shokir boylik va manfaatni ustun qo'ysa, Jo'ra xalq manfaatini birlamchi deb biladi. Mustaqillik yillarida tugallangan ushbu drama o'tish davri qiyinchiliklarini bosqichma–bosqich bosib o'tishdagi zamondosh inson ruhiyati aks ettirilganligini kuzatish mumkin bo'ladi.

Quyida dramaning xarakterli o'rinlaridan bitta misol keltirib tahlil qilib ko'ramiz:

Boltaboyev. Eshmamatov akamlar, raykom emas, tumanimizning hokimi bo'ladilar... Raykom endi qolib ketdi!

Chol. Mayli, kim bo'lsalar ham raykoslar–da!.. Bugun tuzukman... Samarqandga safarga borishimizni eshitib, birdan yengil tortdim... Mehmonlar yo'qlagan ekanlar, o'zim yurib chiqmasam, uyat bo'ladi deb... (Xorijlikka). Xush kelibsiz!

Xorijlik. Xushvaqt bo'ling!.. Bu Samarqandga dam olish kunlari tushib tursalaring kerak–da?

Chol. (Kulib). Bir umr mehnat qilib, dam olish kunim endi kelganga o'xshaydi, mehmon. Nasib etsa, Samarqandga birinchi borishim bo'ladi.

Xorijlik. Tushunmadim. Qaysi samarqandni aytyapsiz?

Shokir. Mehmon, ajablanmang, o'sha Amir temurning poytaxti Samarqandni aytayapmiz...

Xorijlik. Samarqand bir qadam yo'l–ku! Nahotki... Barakalla–e sizlarga!..

Shokir. E bizning xalq, mehmon, qo'yday gap. Qorni to'ysa, issiqda erib yotaveradi. Faqat so'yishayotganda bir “ba–a” deydi xolos. Oyoq–qo'lini bog'laguncha ham indamaydi. “Meni oyoq–qo'limni bog'layapti–ku deb ham o'ylab ko'rmaydi. Faqat bo'g'zi shartta kesib tashlangandan keyin jon holat tipirchilaydi... Men Amerikaga har borganimda qoyil qolaman. Bitta xo'jayin bor. Qonun! Bizda qonunni qonunni yozganlarning o'zi buzadi. Mana, ikkita qonunbuzar o'tiribdi! Xalqning boshida nima savdo borligi bilan bir tiyinlik ishlari yo'q! Cho'ntaklari to'lsa, bo'ldi!

Eshmamatov. Siz o'zingiz xalqni ko'p o'ylaysiz—da, Shokirjon! Boshqa ishingiz yo'q, top—toza imoningizni ustida yastanib faqat xalqni o'ylaysiz! Shokir. Sen itdan tarqaganlardan mening farqim shuki, men o'zimni kimligimni yashirmayman. Ichim bilan, tishim bir. Sen ukag'arlarga o'xshab artist emasman. Boltayev! Senga nima yuborgan edim! Telefon qilishdimi, yo'qmi?

Boltayev. So'radim... Qilishmapti....

Chol. Shokir! Sen begona yurtlarda yuraverib... o'zingni sal tashlab yuboribsan... Mehmonlarni oldi—da, og'zingga qarab gapir, bolam.

Uchuvchi. (gapni chalg'itib). Ota, akam sizni yo'qlab kelganlar...

Chol. Nima xizmatlari bo'lsa, bosh ustiga.

Xorijlik. Biz g'amxona yurtlarga kelishimizdan avval shu Chaganada hovlimiz bo'lgan ekan. Xudo sohib, agar omon qolgan bo'lsa, bir ko'rib tavob qilsam degan niyatda..

Chol. Kimlarning avlodidan bo'lasiz?

Xorijlik. Bobomni Abdusamad To'qsoba der ekanlar. Padari buzrkvorim tangriqulbek...

Chol. Ana gapu, mana gap! Tangriqulbekdan tuyoq qolgan ekan—da!.. U bilishimcha, o'ttiz birinchi yil yo'q bo'lib ketgan. “Otishibdi” deb gapirib yurishadi... Yigirma bir yoshlarida ketdi vallamat!.. Men u kishidan yetti yosh kichikman... Suyinchini hozirlay bering, mehmon! Sizlarning hovlingiz bor!”<sup>7</sup>.

Ko'rinadiki, dramada Eshmamatov, Boltaboyev, Shokir va Chol o'rtasida kechgan muloqot bir tomondan voqyealar silsilasini vujudga keltirsa, ikkinchi tomondan xarakter badiiy tadrijini reallashtiradi. Chunki dramaning keskin dramatik vaziyati ana shu nuqtadan boshlab, real mohiyat kasb etadi. Boshqacha aytganda, Cholning bilimdonligi, o'zoqni ko'ra bilishi, samimiy va ochiq chehraligi namoyon bo'alid. Shokir va Eshmamatov oralarida ham mustahkam aloq o'rnatiladi. Ayonki, boltaboyev ruhiyatiga ingan yovuzlik, qachonlardir uyg'ongan istak irodasining mevasi. U zamon kishisi, o'zgarayotgan dunyoning talato'plarida baxtli bo'lishga tirishgan personajdir. Lekin har bir narsaning oqibati

---

<sup>7</sup> Ўша асар. 314–315 бетлар.

bilan unchalik qiziqsinmaydi. Uning ojiz va qudratli tomonlari ham aslida shu yerda bo'y ko'rsatadi. Usmon Azim bir voqeani tasvirlar ekan, ikkinchi bir voqeaning shiddatli tus olishiga mantiqiy uro'u beradi. Demak, dramaturgning poetik mahorati ham shunda. U hyech bir kiritmani e'tibordan chekkaga chiqarmaydi. Inchunun, dramada bir necha shamoyilni tasdiqlash mumkin. Cholning farzandlari hamisha o'z zamoni bilan birga yashashga intiladi. Yolg'on e'tiqodlarga o'rganib umri sarob bo'lgan Chol hamisha bezovtalanib yurishi ham shu yerda bo'y ko'rsatadi. Aslida esa o'g'il va qizlari uni tushunishni istashmaydi. Dramaning eng baquvvat ustunlaridan biri ham shunda deb o'ylayman.

Usmon Azimning qaysi bir sahna asarini olib qaramang, shafqatsiz realistik uslubi yuzaga qalqib chiqqanligini kuzatish mumkin. Undagi voqealar rivoji ham shaxs ruhiyatini teran tahlil qilganligida qabarib ko'rinadi. Inchunun inson ruhiyatini tasvirlash bosh mezon ekan, U.Azim bunga alohida ma'no yuklashga intiladi. Ta'kidlash o'rinliki, U.Azim nima va kim haqida so'z yuritmasin, insoniyat baxti uning kelajagi faravon bo'ilishiga olib boradigan yo'llarni izlashga tirishadi. Chunki shunday qilmasa uning o'ziga xosligiga putur yetishi tabiiy hol. Balki umuman insoniyatni baxtli qiladigan vositani qahramon dunyoqarashida isbotlab berar. Nega deganda hamisha bezovta shoir yuragi shunday qilishga odatlangan. Shunday ekan, dramadagi ko'ngilsizliklar ham aslida ularning bir-birlarini tushunmaganliklarida deb o'ylash mumkin. Chunki ota va o'g'il orasida kechgan turfa muloqotlar zahirida ham shu hol ko'zga tashlanadi. Ular bir-birlarini tushunish qayoqda? Buni yurakdan istashmaydi ham. Ammo o'zlaricha jamiyat tartib-intizomlariga rioya qilib, qonun oldida javobgar shaxs o'laroq yashashni maqsad qilgandek tuyulsa-da, ammo, lekin unday qilishga odatlangan emas. Ya'nikim, ularning turfa xil hayot yo'llari-yu, maqsadlari shunday deyishimizga zamin hozirlab bermoqda.

Dramaning xotimaga yaqin qismida bir jihat aniq ravshanlashadi. Bu ham bo'lsa vaqtida va'dalar berib, oxir-oqibat baarishni uddalay olmagan farzand qiyofasi nelarga qodirligi, kuchli va ojizligi ayonlashadi. Jo'ra va Shokirlar

qiyofasi aniq-tiniq ko'zga tashlanadi. Masalan, quyidagi parchada buning yorqin ifodasini kuzatamiz:

“Shokir. Ota! Bilasizmi, O'risiyadan qo'ng'iroq qilib qolishid... Men tezlik bilan ketishim kerak. Ikki haftadan keyin kelaman. Kelamanu darhol hayallamay sizni Samarqandga olib ketaman...

Chol. Qayerga olib ketasan?

Shokir. Samarqandga...

Chol. Ha, Samarqand... Borolmaydigan bo'ldikmi?..

Shokir. Ikki haftadan keyin borammiz...

Chol. Attang... Shu safar astoydil yo'lga otlangan edim...

Shokir. Men hozir jo'nayman...

Chol. Samarqandga yo'lda kirib o'tolmaysanmi?

Shokir. Yo'q men uchib ketaman...

Chol. Men sening o'rningda bo'lsam, Samarqandga hamisha to'xtamasdan o'tmasdim... Shunday joyni ko'rmasdan qanday o'tib ketasan. Ketmoqchi bo'lsang, bir fasl shoshmay tur. Men ichkariga kirib bir oz dam olay... Keyin senlarga aytadigan bir og'iz gapim bor. Xo'pmi?..

Shokir (soatiga qarab). Xo'p.

Chol xonasiga kiradi. Orqasidan xavotirlanib jo'ra kiradi.

Jo'ra. (xonadan chiqib). Otamdan xavotir olyapman... Uka, shu va'da degan qurg'urni o'ylab bersang bo'lmaydimi?

Shokir. Bunaqa bo'lishini kim bilibdi?

Jo'ra. Kamida beshinchi marta va'da berishing...

Shokir. Dunyoni ishi teskari bo'lsa, men nima ham qilaolaman! Men va'dani o'ylamay bergan bo'lsam, siz o'zingiz va'dani o'ylab bering-da, otangizni Samarqandga elting.

Jo'ra. Men senga ertalab nima dedim? Samarqandga borolmayman dedimmi?

Saodat. (oshxonadan choy ko'tarib chiqib). Urushmanglar...

Cholning xonasiga kirib ketadi. Birpasdan keyin qaytib chiqadi. G'alati sukunat.

Jo'ra. Tinchlikmi?

Saodat. Bobomni ko'p qatoriga qo'shibmiz... (Yig'laydi.) Otajon!

Beg'am. Ota!.. Otajon...

Shu payt bog'dan o'q ovozi eshitiladi. Og'ir jimlik cho'kadi. Anchadan so'ng, bog' eshigi g'ijirlab ochilib (u balki ilgari ham g'ichirlagandir, ammo hyech kim eshitmagan) miltiqni sudraganicha, Qosim chiqadi.

Qosim. Boltaboyevni... peshonasidan otdim.

Hamma joy-joyida qotib qolgan. Parda shu holatda yopiladi”<sup>8</sup>.

Ko'rinadiki, dramatik vaziyat shu nuqtada taranglashadi. Ota – farzand – kelin o'rtalarida kechgan oniy muloqot, dramadagi ijodiy niyat qamroqining yakunlanishiga sharoit yaratadi. Bir umr “Bir qadam yo'l” Samarqandni orzulab yashagan mo'min-qobil Chol qalbidagi eng ezgu niyatlariga yetolmay qiynaladi. Ming afsuski, farzandlar ham buni kech, juda kechroq tushunishadi. Aslida esa dunyoning o'zgarmas qonuniyati ham shu! Unda shaxs va jamiyat murosasiz kurashi abadiylikka muhrlangandek, muhrlanib insonni mavh etadigandek tuyuladi. Shokir osmon-osmon va`dalarni bergani bilan ularni amalda bajarishga qodir emas. Chunki uning yagona siyosati – pul va boylik jamg'arishdan iborat. Jo'ra esa bir umr xalq manfaatlarini o'ylab, shirkat ishlaridan o'zini tiyolmay, otasining qalbidagi oruzlarni bajarishga hech bir vaqt topmaydi. Bu o'zaro ixtilof oqibatida otasi bu yorug' dunyodan qaytib ketmas bo'lib ketdilar. U.Azim dramasigi mavzu qamrovi ham o'tkinchi ekanligimizni uqtirishdan iborat. “Bir qadam yo'l” yuqorida ta'kidlaganimizdek, umr yo'li, ayriliq va iztiroblar yo'li. Shunday ekan, undagi voqealarni sinchiklab kuzatgan tomoshabin ham kitobxon ham o'zlariga tegishli saboqlar olishi tayin. Negaki, adabiyot ham hayot darsligidir. Hayotning bergan beminnat saboqlaridan xulosa chiqarib yashash har bir insonning burchidir. Demak, dramadagi keskin konfliktlar ham shu yanglig' savolning mohiyatiga teranroq kirib borishga zamin hozirlaydi. Aytish o'rinliki,

---

<sup>8</sup> *Ўша адабиёт. 330-331 бетлар.*

U.Azim tanlagan mavzu hayotda tez tez uchrab turadi. Bu degani shuki, mangu savolga javob axtarayotgan zamondosh inson ruhiyati dramda o'ziga xos tarzda ko'zga tashlanadi, hamda reallik kasb eta boradi.

Umuman, "Bir qadam yo'l" silliq va teran mushohadalarga boyligi bilan ham adibning boshqa asarlaridan jiddiy tafovutlanadi. Negaki, ushbu asarda shaxsiy hayot masalalarini ustun qo'ygan har bir personaj ziynati real tasvirlanadi. Bu tasvirlar qa'tidagi ma'noni ilg'ash tafakkuri keng tomoshabinlaru kitobxanlarga tanish. Ayniqsa, unda millatimizning so'nggi yigirma yil ichidagi mislsiz o'zgarishlari, qalb tebranishlari, orzu-umidlari teran ifodalab berilgan. Ushbu dramada shoirning o'ziga xos uslubga eega ekanligini ta'kidlash joiz. Chunki uslubiy alohidalik doimo yangi-yangi yo'nalishlarning paydo bo'lishiga zamin hozirlaydi. Ijodiy yo'lini o'ziga xos tarzda olib borayotgan shoir va dramaturg Usmon Azimning "Adibning umri" kitobiga kiritilgan "Bir qadam yo'l" asari o'zbek kitobxonlarining ma'naviy bisotidan joy olgani shubhasizdir. Negaki, bir-biridan mavzu-mundariyasi jihatidan ham keskin tafovutlanadigan asarlarida inson kamoloti, uning istaklari, armonlari, boy madaniy, ma'naviy merosi o'ziga xos tarzda tasvirga olinadi. Bular esa mustaqillik yaratib bergan sharoitdan unumli foydalanishga bo'lgan chaqiriqning mohiyatini teranroq tushunib olishlariga katta zamin yaratib beradi. Demak, drama ham insonni ma'naviy yetuk bo'lishida kuchli ta'sir o'tkazishi ayonlashadi.

## **II BOB. ADIB DRAMALARIDA TARIXIY SHAXSLAR IFODASI**

Ma'lumki, tarixiy dramalarda dramatik vaziyat va konflikt masalalari hamisha dolzarb muammolardan biri bo'lib kelgan. Negaki, tarixiy asardagi kechadigan voqealarni butun-murakkabligicha qalamga olish juda mushkul ishlardan biridir. Shu bois, dramaturglarimiz o'tgan zamon, masalan mamlakatimiz tarixiga oid jihatlarni umulashtirishga intilar ekan, bir necha xususiyatlarni birlashtirishga intiladi. Ayniqsa, tarixning bor qiyofasini badiiylik darajasiga ko'tarib chiqadi. Keyin ushbu masalalarni teranroq tahlillab ko'radi. Demak, tarixiy asarlar o'tmish va kelajak orasidagi mustahkam ko'priklar vazifasini ham bajaradi.

Tarixiy asarlar tarixiyligi bilan ham boshqacha mohiyat kasb etadi. Negaki, davr va zamon tilsimni tasvirlash dramaturgdan katta bilim va mahorat talab qiladi. Sh.Rizayevning bir necha katta-kichik tadqiqotlarida ham bu borada teran ilmiy-nazariy mushohadalarni ko'rishimiz mumkin. U tarix va zamon qiyofasini o'zida jilvalantirgan bir necha dramatik asarlarni tahlil-u tadqiq qilayotgan zabardast adabiyotshunos olimlarimizdan biri sanaladi. Uning bir necha asarlari keng kitobxonlar hukmiga havola qilingan. Bugungi kunda Sh.Rizayevning olib borayotgan monografik tadqiqotlari ham ayniqsa, uning iste'dodidan, didi balandligidan dalolat beradi. Tarixiy asarlar o'ta murakkab bo'ladi. Unda o'tib ketgan inson ruhiyati aks ettiriladi. Chunki tarixga aylangan qisqa vaqt ichida bir necha dramatik asarlar yuzaga keldi. Masalan, Usmon Azimning "Cho'lpon hayoti va ijodiga bag'ishlangan "Kunduzsiz kechalar" asarida bu holning o'ziga xos tomonlarini ko'ramiz.

Cho'lponning "chechaklar ungusi ko'z yoshlarimdan" degan bashorati o'tgan asrning 70-yillari o'rtalaridan haqiqatga do'na boshladi: she'riyat maydoniga shu davrda qadam qo'ygan avlod ijodida istiqloq sog'inchi qayta nish urdi, avjga kirdi, keyinroq barq urib yashnay boshladi. Shu ma'noda, U.Azim mansub shoirlar avlodi – jadid ijodkorlar an'alarining bevosita davomchilari, adabiyotimizdagi milliy uyg'onishning chin ma'noda ikkinchi to'lqinidir. Zero, ular Cho'lpon she'rlarini yashiriqcha yutoqib-yutoqib o'qigan, uning dardi bilan

og‘rigan – shoirni o‘ziga ma’naviy pir bilganlar. “ Pir va murid orasida ma’naviy birlik bo‘ladi”<sup>9</sup>: dramada Cho‘lponning o‘ziga xos va teran badiiy idrok etilgani shundan, kuchli taassurotning asosiy omili ham shu bo‘lsa, ehtimol...

Drama voqealari shunday boshlanadi: “Cho‘lponning mo‘‘jazgina hovlisi – bog‘i. Cho‘lpon va do‘stlari suhbatga yig‘ilganlar. Ulfatlarning oshga tayyorgarlikda ekanligi sezilib turibdi”. Dilkash suhbat avjida ekanida “hayajonlangan holda Oybek kirib keladi”, qo‘lida gazeta, unda Cho‘lponga qarshi maqola e‘lon qilingan. Oybekdan ovoz chiqarib o‘qishni so‘raydilar, hassos shoir o‘qiyolmaydi – Sezgir o‘qiydi: “Cho‘lpon yo‘qsil xalq shoiri emas. U – millatchi, vatanparast, badbin ziyolilar shoiri... U yo‘qsillar dunyosining... (tutilib, qiynalib) dushmani...” Sezgirning so‘nggi jumlaning bo‘lib, tutilib, qiynalib o‘qishi bejiz emas, shundan keyingi “soqov sahna” buning sababini oydinlashtirish bilan birga, o‘zida davr ruhini aks ettiradi: “Hamma qotib qolgan. Shogirdlar o‘rnidan turadilar. Ko‘zoynak ushlab turgan daraxt novdasi qarsillab sinadi. Mashshoqning qo‘li tegib, suyab qo‘yilgan doyra taraqlab ketadi. Har bir tovushdan davradagilar seskanib ketadilar”.

20-30-yillar ruhini, zamona kishilarining ma’naviy-ruhiy qiyofasini ochib berishga erishadi

“Cho‘lpon (hech narsa bo‘lmaganday). Qorin ham och qoldi. Oshni suzdiray... (Chiqib ketadi).

Hamma uyatlig‘ bir ish qilganday ko‘zini yashirgan asno qoladi”.

Holat shundayki, davradagilarning hech biri hali uyatli ish qilganicha yo‘q, lekin deyarli hammasi “uyatlig‘ bir ish” bo‘lishi muqarrarligini his qilib turibdi. Muhimi, o‘zini “hech narsa bo‘lmaganday” tutgani holda, Cho‘lpon ham vaziyat nechog‘li qaltisligiyu “uyatlig‘ bir ish” bo‘lishi muqarrarligini biladi: “oshni suzdirish” bahona do‘stlarining shu ishni qilishlarini yengillatmoq maqsadida chiqib ketadi – muallif his etolgan, sahnadagilarning bari birdek anglab turgan fojiaiylik shunda. Ayni shu narsa holatning keyingi rivojini mantiqan asoslaydi:

---

<sup>9</sup> Mirzayev S. XX asr o‘zbek adabiyoti. T.: Sharq, 2006

“Sezgir. UZR, o‘rtoqlar, meni boradigan joyim bor (dovdiragan holda chiqib ketadi).

Ko‘zoynak (soatiga qarab). Ie, meni ham majlisim bor edi-ku! (Dadil yurib, chiqib ketadi)

Qolganlar ham bir-birlarining yuzlariga qaramasdan tarqala boshlaydilar. Faqat Oybek qoladi...”

E’tibor qiling-a, ayni damda “uyatli bir ish” qilishga majburlik davradagilarning barini o‘rtaydi, hammalari bir-biridan hijolat: “bir-birlarining yuziga qaramaslikka” tirishadi. Lekin, nachora, ziyoli ham odam-da, jon deganlari shirin-da, axir! Xafa bo‘lmasinlar-u, ziyoli qavmiga xos amal budir: do‘ppi tor kelganida, noma‘qulni qilmaslik emas, o‘ziga gard qo‘ndirmay qilish haqida ko‘proq qayg‘uriladi. E-voh, tabiatan ijtimoiy maxluq bo‘lgani bilan kulfat qarshisida inson hamisha yolg‘iz – chekiga tushganni chiyillamay tortishga mahkum. Bu – ayon haqiqat, lekin xayol, orzu degan narsalar ham bor-ku, axir! Fojia ham shunda-da: odam bolasini hur va mukammal ko‘rishni orzulagani holda Cho‘lpon mavjud holatni boricha qabul qilishga, uni tushunishga majbur. Ayni shu majburlik shoirni ezg‘ilaydi, ko‘ngli esa bunga ko‘nmaydi, ko‘nolmaydi:

“Cho‘lpon qo‘lida lagan bilan kirib keladi. Kimsasiz davraga qarab bir lahza to‘xtaydi. So‘ng hech narsa bo‘lmaganday laganni dasturxonga qo‘yadi.

Cho‘lpon. (go‘yo davrani to‘ldirib o‘tirgan do‘stlariga qarab) UZR, do‘stlar, sizlarni kuttirib qo‘ydim. Qani, oshga qaranglar! Marhamat!..”

Qarang: Cho‘lpon hanuz orzularidan kechmagan, ilgariroq “Xayol...xayol... yolgiz xayol go‘zaldir, Haqiqatning ko‘zlaridan qo‘rqaman...” deganidek, hozir ham xayolot olamiga qochib qutuldi. Biroq inson xayolot olamida muqim qololmaydi, bandai ojiz yerning tortish kuchiga qandog‘am bas kelsin, – mavjud voqelikka qaytishi muqarrar:

“Palovdan bir osham oladiyu bir lahza nima qilishini bilmay turib qoladi. Qo‘lidagi palovni yana laganga qo‘yadiyu sochiqqa artgan bo‘ladi...”

Cho‘lponning ayni damdagi ahvol ruhiyasini his qila olasizmi? Yerga sig‘mayotganidi, sig‘dirishmayotgandi sho‘rlikni, endi ko‘kidan-da ayrilganida

holi ne kechmoqdaykin? Shoir qavmining azaliy qismati shu – Ideal xayoli bilan voqelikda yashamoq; shu ikkisining nomuvofiqligidan Dard tug‘iladi, uning yolg‘iz davosi – voqelikni Idealga muvofiq, ya’ni jamiyatni mukammal, insonni komil ko‘rish umidi. Nachoraki, umidning manbai ham, kushandasi ham voqelik, ya’ni shoir birgina umrida ko‘p bor o‘lishga mahkum:

“Soliha (hayron qolib). Mehmonlar qani?

Cho‘lpon. Azaga ketishdi...

Soliha. Qanaqa aza? Kim vafot etdi?

Cho‘lpon (u o‘rnidan turib ketadi. Borib chorpoyada yotgan gazetani oladi-da, uloqtiradi). Bir shoir vafot etdi, Soliha, bir shoir...”

Shoirning qotili – Xiyonat, shoirlarni aksar xiyonat o‘ldiradi. Faqat, xiyonatning yarog‘ tutarga qo‘li yo‘q, qatlarni u shoir komil ko‘rmoq istagan odamlar qo‘li bilan amallaydi. Chinakam shoirki bo‘lsa, bundayin qismatdan qochib qutulolmaydi: yuragida u yoki bu libosdagi Xiyonat qoldirgan jarohat izlari bor. Shu jihatdan muallif – qahramoniga qismatdosh-u qavmdosh, ya’ni Cho‘lpon obrazini yaratar chog‘ida uning yuragidagi chandiqlar ochilib, yangilangan yaralar og‘rig‘i bilan yozganki, mutolaa chog‘i o‘quvchi, spektakl chog‘i tomoshabin o‘sha og‘riqlarni o‘z yuragida his etadi...

... Cho‘lponni anglash asnosi muallif ko‘p martalab Hamletni eslagan, shuurida goh anglangan, goh anglanmagan tarzda Hamlet jonlanavergan bo‘lsa, ehtimol. Bu bejiz emas. Avvalo, shoir sifatida salafining 30-yillarda “Hamlet” tarjimasiga qo‘l urishi milliy teatrimiz ehtiyojlarini qondirish uchungina bo‘lmaganini chuqur his qiladi. Shu bois ham U.Azim talqinidagi Cho‘lpon hayotidagi eng qaltis vaziyatda o‘z tarjimasidagi Hamlet monologini eslaydi: “Yo o‘lish, yo qolish – gap shunda! Ajabo, qaysi biri sharaflil va olijanob: dilozor falakning zarbalariga chidashmi yoki balolar dengiziga qarshi bel bog‘lab, ularga qarshi qo‘zg‘olib, ularni barham berishmi? O‘lim – bir uyqu, xolos...” Dramadagi Cho‘lpon nafaqat ruhiy jihatlari, ayrim xatti-harakatlari bilan ham Hamletni yodga soladi: yuqorida ko‘rganimiz o‘zini atayin voqelikdan tamom uzilgan devonadek tutishi... “Yozamanu yoqaman” deya o‘tirishlari... Oybekning “qo‘lyozmalar

yonmas emish” deganiga javoban “bu gaplar bir tasalli uchun aytilgan-da” deya tan olinishi o‘zi uchun-da og‘ir shafqatsiz haqiqatni ta’kidlashi... “Yaxshi kunlar qachon keladi, kim biladi! Yovuzlik esa boshimizga egilgan. Qo‘li bo‘g‘imizda, ko‘zi har bir harakatimizni kuzatib turibdi...” deyishlari... suyuklisi Solihani o‘zidan uzoqlatishi... – bular bari Shekspirning o‘lmas asariga hamohang. Axir, ikkinchi tomoni, U.Azimning shaxs va ijodkor sifatida shakllanishi “hamletchilik” urf bo‘lgan davrga to‘g‘ri kelmaganmi?! Ha-da, bu davrning qanoti qirqib qo‘yilgani holda nigohi yuksaklarga termulgan ijodkor ziyolisi o‘zini Hamletga darddosh sezgan, “Doniyo – zindon...” kalimasini majoziy anglagan va tez-tez “yozamanu yoqaman...” kayfiyatiga tushib turgan bo‘lsa, hech ajablanarli joyi yo‘q. O‘z vujudida his qilganlaridan sahnada Hamlet bo‘lib yashab ko‘rgan va hayotda ham hamletona umr kechirgan boysunlik ulug‘ adibga, undan esa qahramoniga o‘tgan – milliy ziyolilarning ma’naviy-ruhiy birligini ich-ichidan his qilgan... qaysiki, afsus, gohi unutib qo‘yadiganimiz ma’naviy-ruhiy birlikni his qilgan, his qildirolgan. U.Azim mansub adabiy avlod inson qadrini, uning ijtimoiy maqomiyu qarashlaridan qat’i nazar, juda yuksak qo‘ydi. Zero, bu avlod nigohini “kommunistik kengliklar”dan uzib, xalqning kundalik hayoti tomon burdi va daf’atan his etdiki, o‘zini sog‘intirgan Erk, Hurlik, Tenglik kabi ezguliklar faqat sotsializm g‘oyasi bilangina bog‘liq emas, aslida, milliy va diniy qadriyatlarimiz azaldan shu tushunchalar asosida turar ekan. Axir, shuni his etib turgan ko‘ngillarga Cho‘lponning “Sen-da odam, sen-da insonsan, Kishan kiyma, bo‘yin egma, Ki sen ham hur tug‘ilg‘onsan!”<sup>10</sup> tarzidagi o‘tli misralari chippa yopishmasligi mumkinmi?! Agarki inson hur tug‘ilgan va insonlar orasida teng ekan, uni sho‘rochasiga ma’lum g‘oya mavqeidan turib tasdiqlash yo inkor qilish g‘irt bema’nilik bo‘lmaydimi?! Shu tariqa bu avlod insonning hakamligi hech ekanini, oldinda Oliy Hakam – mayli, uni goh vaqt, goh vijdon, goh avlodlar, goh yana boshqa narsa bilan bog‘lagan bo‘lsin – borligini tobora teran his eta bordi, tarixan olislarga ketgan ildizlardan oziqlanib, shu e’tiqodida sobitlashdi – insonni tushunishni ijodining asosiy tamoyiliga aylantirdi. U.Azim talqinida Cho‘lpon

---

<sup>10</sup> Cho‘lpon .Asarlar. Uch jildlik. -T.: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot. 1993.

xuddi shunday e'tiqod kishisi sifatida gavdalanadiki, buning asosi muallif bilan qahramon orasidagi ma'naviy-ruhiy va e'tiqodiy yaqinlikdir.

Yuqorida ko'rdikki, Cho'lpon xiyonatkor do'stlarning-da andishasini qiladi, behijolat yo'l tanlashlariga imkon beradi: ularning ayrimlari o'z tinchini o'ylab tomoshabin maqomiga o'tsa, boshqalari oshkor dushmanlik yo'lini tutadi. Dushmanlik yo'lga o'tganlardan biri – Sezgir uzrxohlik qilib kelgan sahnani eslaylik:

“Sezgir. Abdulhamid! Jon birodarim!

Cho'lpon. Nega kelding?! Qayt! Sen yuzi qaro odamsan!

Syezgir. Mayli! Mayli! Bemalol meni so'k! Mana, yuzimni tutib turaman! Bemalol shapaloq tort! Menga bo'lgan nafrating so'ngancha uraver! Xohlasang, yotqizib tepkila! (Tiz cho'kib). Faqat meni kechir! Eski do'stligimiz hurmati!.. Cho'lpon (birdan o'zgarib). Senga nima bo'ldi?! Tur o'ringdan, tiz cho'kma! Meni noqulay ahvolga solyapsan? Tur! Duppa-durust odam eding, seni nega xudo urdi?!”

Qarang: inson qadrini baland tutuvchi Cho'lpon dushmani tiz cho'kish bilan o'zgardi, zero, buni insonlik sha'niga nomunosib ko'radi. Albatta, u xoinni yoqlamaydi, uni “yuzi qaro” deb biladi, lekin kechirishga tayyor: “Nega kechirmay, birodarim! Bu dunyo maromida oqayotgan bo'lsa ekan, sendan maromni buzding deb o'pkalasam!.. Faqat dunyo me'yoriga qarab ish ko'rayotgan jamiyatda me'yordagi odamlar yashaydilar! Bu qotil jamiyatda esa hech kimni ayblab bo'lmaydi!” Cho'lpon chinakam faylasuflarga xos fikrlaydi, mohiyatga nazar soladi va shu bois ham illatning ildizini ko'radi, ko'rsatadi. Muhimi, Cho'lponning kechirishi “odamning yuzi issiq” degan andishadan emas, balki mustahkam e'tiqodidan kelib chiqadi. Ayni shunda uning kuchli shaxsligi namoyon bo'ladiki, buning yaqqol belgisi ojizlarga shafqatdir. Mabodo shunday bo'lmaganida, Cho'lpon oddiy kaslar qatori ojizdan alamini olib, xumordan chiqish payida bo'lur edi. Yo'q, dramadagi Cho'lpon kuchli shaxs, buni unga dushmanlik qilgan Sezgir ham e'tirof etadi: “Cho'lpon! Sen kuchli odamsan! Xudo bergan zotsan!”

Chinakam kuchli shaxs sifatida Cho'lpon Sezgir o'z ojizligi orqasida chekayotgan iztiroblarni his qiladi, unga ich-ichidan achinadi va Oybekka aytadiki: "Hozir aytadigan gaplarimni yaxshilab eslab ol... Mabodo bir kun bu voqealar haqida yozsang bu odamning bugungi holatini eslama! Uyat bo'ladi!" Cho'lponning bu gapidan kelajak oldida mas'ullik seziladi. Muhimi, u o'zidan mas'ullikni aslo soqit qilmaydi, qaysidir darajada "uyat bo'ladi"gan ishga o'zi ham aloqadorligini mardona tan oladi: "Hammamizning ham boshimizga ozmi-ko'pmi o'shaning ahvoli tushib turibdi. Ana, men yozganlarimni yoqib o'tiribman. Axir, gunohi bor! Bilsang, eng ulug' ijodkor parvardigordir! Haqiqatni qumsab yozilgan har bir so'z adibning ko'ngliga bekor tushmaydi! Adib o'z so'zini sovurishi esa ijodkorlikni, demakki, tangrining ravishini rad etishdir..." Nazarimda, shu dialogning davomida muallifning drama imkonlaridan foydalanish mahorati yaqqol ko'zga tashlanadi. Gap shundaki, yozganlarini yoqib o'tirganini Cho'lpon "uyatli ish"ning bir ko'rinishi hisoblaydi, suhbatdoshi Oybekning esa bu masalada fikri o'zgacha:

"Oybek. Yolg'on so'zdan yongan so'z avlodir.

Cho'lpon. Nima?! Takrorla!..

Oybek. "Yolg'on so'zdan yongan so'z ma'qul" dedim.

Cho'lpon. Yolg'on so'zdan yongan so'z ma'qul!"<sup>11</sup>

Mazkur reblikalardan keyinroq muallif remarkasi berilgan: "Ko'rinmas odam yaqinroq kelib, eshitmoqchi bo'ladi. Xazonlar shitirlaydi" Ya'ni, remarka suhbat bo'linib qolganini anglatadi: Cho'lpon Oybekning gapini takrorlaydi, xolos, unga munosabat bildirmaydi. Sirtidan qaralsa, Cho'lpon hamsuhbatini ma'qullayotgandek ko'rinar va bu, qisman, to'g'ri ham. Negaki, Cho'lpon yolg'on so'zlarni yoqayotgani yo'q, buni Oybek ham yaxshi biladi – aytgan gapi taskin uchun, xolos. Ya'ni, garchi Oybekning gapini takrorlayotgan bo'lsa-da, Cho'lpon taskin topgani yo'q, u hamon yozganlarini yoqishning "gunohi bor" degan fikrda qolgan va ayni shu narsa uni iztirobga soladi...

---

<sup>11</sup> Азим У. Адибнинг умри. –Т.: Чўлпон нашриёти. 2011. 296-297 бетлар.

Drama muallifi Sezgir fojiasini mohirona ochib berarkan, bir inson sifatida unga dildan achinayotgani sezilib turadi. Sezgir qilayotgan ishi nafratga loyiq ekanini biladi, “bular asta-asta sha’nimni, or-nomusimni, Vatanga mehrimni sug’urib oldilar” deya o’rtanadi. Undagi qo’rquv shu darajadaki, mezbonga mehmoni Oybek “xudo haqi ketsin!” deya o’tinadi, “bir kunmas bir kun so’roq qilishsa, bu yigitni “Cho’lponning hovlisida ko’rgan edim” deb sotib qo’yish”i mumkinligidan qo’rqadi. Qo’rquv inon-ixtiyorini olib qo’ygan, sho’rlikning. Shu bois qilmishlari uchun o’zini “men odam emasman! Pastman! Yetti qavat yerga kirib ketganman!” desa-da, “endi nima talab qilishsa, shuni yozib berish” bilan mashg’ul. Sezgir vijdoni qistovga olgan palla Cho’lpon bilan Oybek yuragidagi dard-alamlarni to’kib soldi, lekin unda bir o’zgarish bo’lishiga umid yo’q. Chunki, o’zi e’tirof etayotganidek, odamlilik sifatini yo’qotgan, undagi vijdon qiynog’i esa o’tkinchi:

“Sezgir. (chiqa turib qaytadi). Boshim aynigan! Boshim tamom aynigan! (Ho’ngrab yig’laydi.) Sizlarga nimalar deb laqilladim?.. Hech kimga aytmanglar! Bola-chaqam bor! Kechagina qizli bo’ldim! Aytmanglar! Aytmanglar...”

Ha, muallif inson sifatida unga achinadi, shu achinish vositasida insonni shu ko’yga solgan tuzumga nafratini ifodalab, o’quvchida ham shu hisni qo’zg’aydi. Biroq bu o’rinda achinish muallifgagina fazilat bo’lib yozilishi mumkin, shunday munosabatga loyiq bo’lib qolishdan har bandani xudoning o’zi asrasin! Fikrimcha, dramani mutolaa qilish chog’i o’quvchi, spektakl davomida tomoshabin ko’ngliga shu o’y kelishi muqarrarki, bu badiiyat hodisasi amalga oshganidan dalolatdir. Drama badiiyatiga oshno bo’lgan kishi shu sahnani o’qib “Alhazar!” deya yoqa ushlaydi, Cho’lpon Sezgirga qarata aytgan gaplarni o’ziga dasturulamal qilishga chog’lanadi: “Men odamman deb o’yla! “Men odamman” deb ichingda takrorlayver!”

Yubiley deganlari ko’p yaxshi narsa. Lekin yozganlarim yubileybop gaplar deb tushunilmasa yaxshi edi. To’g’ri, yubiley bahona o’n ikki yil narida olgan taassurotni tiklashga uringanim bor gap. Zero, o’shanda tuyqus yombi olmos topgandek edim... Yubileylar bor bo’lsin, bugun oltmishvoylar safiga qo’shilgan

Usmon Azim oltmishga yana sayqal bersin-u, Cho'lpon tavalludining navbatdagi katta to'ylarida uning jilolaridan bahramand bo'lish sizni bizga nasib etsin.

Aytish o'rinliki, Usmon Azim qalamga olgan "Kunduzsiz kechalar"da nihoyatda og'ir vaziyatni tasvirlaydi. Unda bir guruh millatimizning gultoji bo'lgan shaxslar ruhiyati aks ettiriladi. Masalan, undagi holat, mimika, vaziyatlar dramaning yorqin bo'yoqlarda tasvir etilganidan dalolat beradi. Bir narsani yodda tutish joizki, shaxsiy hayotda ham, ijodiy olamda ham o'z aytar so'ziga, ahdu vafosiga sodiq bo'lib, chinakam adabiyot yaratib xalqqa xizmat qilayotgan Usmon Azim asarlari hali yirik tadqiqotlarni yuzaga keltirishga zamin hozirlaydi. Chunki ularda millat hayoti va dardi ifoda etilgan. Buni tushunib olish va xulosalar chiqarish, yaqin o'tmish – tarixdan xulosalar yasash har bir ziyoliga muqaddas burch bo'lib sanaladi. Demak, muqaddas burch bor ekan, undan oqilona foydalanish zarur.

Umuman, tarxiy dramada shaxs ruhiyati, xarakteri o'ziga xos tarzda chizilgan. Unda Cho'lponga zamondosh adiblarning xiyonati va do'stlik rishtalari ifoda etilgan. Bular Botu va Oybek, Zamonqul va Sezgir, Cho'lpon va Akmal Ikromovlarning xarakterini yorqin bo'yoqlarda yoritib berganligida qabarib ko'rinadi.

Adabiyotshunos Sh.Xasanov Usmon Azimning **"Xalil Sulton"** dramatik qissasini tekshirar ekan u quyidagi xulosaga keladi: "Ma'lumki, Xalil Sulton Temurdan so'ng uning taxtiga o'tirgan shahzoda. O'zining insoniy xislatlari bilan ko'pgina ijodkor va ilm ahlining diqqatini tortgan shaxs". Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Davlatshoh Samarqandiylar Xalil Sulton haqida iliq fikrlar bildirishadi. Tarixiy ma'lumotlarning guvohlik berishicha, "Xalil Sulton Temuriylardan bo'lgan Amir Temurning nabirasi. Mironshohning o'g'li. Saroy Mulkxonim (Bibixonim) tarbiya qilgan. 15 yoshli Xalil Sulton Sohibqironning Hindistonga qilgan yurishida (1399-1400) qatnashib jasorat ko'rsatgan. Sohibqironning Xitoyga qilgan yurishida Xalil Sulton qo'shinining o'ng qanoti boshlig'i etib tayinlangan. Amir Temurning vasiyatiga muvofiq Pirmuhammadni taxtga o'tqizish tarafdorlari kuchli bo'lsa-da, biroq 1405-yilning 18-martida

Samarqandni egallab, o'zini Movarounnahrning oliy hukmdori deb e'lon qilgan. U garchi bobosidan qolgan xazinalar vositasida Sohibqironning nufuzi a'yon va kiborlaridan ma'lum qismini o'z tarafiga og'dirib Movarounnahr taxtini egallab olgan bo'lsa-da, ammo ko'p vaqt o'tmay u Amir Temurning sadoqatli amirlari, viloyat noiblari va shahzodalarning kuchli noroziligi va isyoniga duch keladi. Birinchi bo'lib, Turkiston hamda Farg'onaning hokimi amir Xudaydod bilan Shayx Nuriddin Xalil Sultonga qarshi isyon ko'taradilar. Hatto uning o'z ukasi Mirzo Sulton Husayn Amudaryoning chap sohili viloyatlarida o'z hokimiyatini o'rnatmoq niyatida akasiga qarshi bosh ko'taradi. O'z navbatida Amir Temur taxtining asosiy valiahdi Pirmuhammad Amudaryodan kechib o'tib, Xalil Sultonga qarshi Nasafga tomon askar tortadi. Amir Xudaydod O'ratepa va Shohruhiya shaharlarini osongina qo'lga kiritib, Samarqand tomonga askar tortadi. Sheroz yaqinida Zarafshon daryosi bo'yida sodir bo'lgan jangda Xalil Sulton qo'shini mag'lubiyatga uchraydi, o'zi esa asirga olinadi. Xalil Sulton davlat xazinasini behuda sarflab, hokimiyatni boshqarishda xotinining so'zlariga amal qilgan. Saroydagi katta mansablarga tasodifiy kishilar tayinlangan. Bu boshqa temuriylarning qattiq noroziligiga uchragan. Xuroson hukmdori Shohruh katta qo'shin bilan Movarounnahrda yurish qilib, Samarqandni egallagan. Shohruh bilan tuzilgan shartnoma (1409) natijasida Movarounnahrda voz kechgan. Xalil Sultonga Ray berilgan. Umrining oxirigacha shu yerda yashagan"<sup>12</sup>. Xalil Sultonga juda qisqa muddat tojdorlik nasib etdi. Umri yigit yoshida fojiali yakun topdi. Uning Shodimulkka bo'lgan sevgisi ham musibatlar girdobidan chiqolmaydi. Ko'rinib turibdi, Xalil Sultonning butun hayot yo'li fojia xalqalardan iborat. Buni chuqur anglab yetgan Usmon Azim Xalil Sultonning biografiyasini xronologik tartibda hikoya qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ymaydi, balki Xalil Sulton xarakteri ochiladigan oliy nuqtalarga, uning ruhiyat manzaralariga e'tibor qaratadi. Doston davomida Xalil Sultonning liro-epik xarakteri dramatism va lirizm o'zligini ko'rsatadi. Atrofidagi beklarning, amirlarning xiyonati uni ruhan ezadi. Shodimulkka bo'lgan muhabbat bu ezgulikni yanada kuchaytiradi.

---

<sup>12</sup> www.ziyouz .com

## **Xalil Sulton**

Shodiyam, bizlardan ixtiyor ketdi-

Hayot ummonida endi bir xasmiz,

Qayga uloqtirsa, oqamiz nochor....”<sup>13</sup>

“Xalil Sulton o’zida tojdorlikni, shoirlikni, oshiqlikni mujassam etgan murakkab xarakter. Uning tabiatan ko’ngilchanligi bu murakkablikni yanada chigallashtiradi”<sup>13</sup>

Xarakter va xarakterlararo ziddiyatlar konflikt rivojini jonlantirib turadi. Xalil Sultonning ruhiyatidagi ziddiyatlar uning boshqalar bilan bo’ladigan qarama-qarshiligini bosib tushadi. Ayni shu sifatga asoslanib, Xalil Sultonni lirik xarakter deyish mumkin, biroq uning lirik xarakter tarzida kasb etayotgan qiyofasi liro-epik tasvir jo’rligida amalga oshadi. U.Azim Xalil Sulton hayotining eng dramatik lahzalariga ko’proq e’tibor qaratadi. Dramatik lahzalar tasviri esa liro-epik omuxtalik bag’ridan o’sib chiqadi. Shodimulkning nutqida Xalil Sultonning bo’lajak fojiasiga ishora bor: Shodimulk

Sultonim, jangohning qonuni qat’iy,

Seni o’ldirurlar, sen o’ldirmasang.

Lirik dostonlarda xarakter shakllangan holda namoyon bo’ladi. Liro-epik, dramatik dostonlarda ham shunday. Mumtoz dostonlarda liro-epiklik, dramatiklik voqea-hodisalarning tadrijiy rivojidan kelib chiqqan bo’lsa, bugungi dostonlarda liro-epiklik, dramatiklik shakllangan xarakterning dramatik holatlari tasviridan yuzaga chiqmoqda.

“Xalil Sulton” dramatik qissasida mazkur xarakterdan tashqari Amir Temur, Amir Xudoydod, Shafqat devona, Ayol kabi talay xarakterlar ham yaratiladiki,

---

<sup>13</sup> Азим У. Уйғониш азоби. –Т.: 1991.-320 б.

<sup>14</sup> Ҳасанов Ш. Достон таркиби ва табиати. – С., 2011.-76- Б

bularning har biri o'ziga xos fikrlash tarziga, hayot yo'liga, qiziqish va iroda yo'nalishiga ega. Sh.Hasanov ta'kidlashicha: dostoniy xarakterlar janr tabiatiga muvofiq lirika va nasrda yaratiladigan xarakterlar oralig'ida turadi. Shuning uchun bu xarakterni biz ko'pincha liro-epik xarakter deymiz. Xalil Sulton o'z hokimiyatini saqlab qolish uchun qattiq kurashishi, xiyonatkorlarni mahv etishi, bo'yinsunmaganlarni qilich yordamida tiz cho'ktirishi, xullas, saltanat niholini qon va ko'z yoshlar bilan sug'orishi, oqibatda o'z mavqeini saqlab qolishi mumkin edi. Xalil Sulton bularning barini tushunardi. Lekin u shunday yo'l tutganida Xalil Sulton bo'lolmasdi. Chunki uning xarakter mantig'i bu narsani ko'tarolmasdi. Uning tabiatidagi halimlik, yumshoqlik bunga monelik qiladi. Taqdir uni saltanat shohsupasiga ko'tardi va qismat undan ayovsiz bo'lishni talab qilardi. Xalil Sultonning fe'l-atvori qismat talabiga javob berolmasdi. Shu sababdan U.Azim talqinidagi Xalil Sulton voqea-hodisalar girdobida keng quloqch yozolmaydi, oqimga bo'ysunib, chor-nochor suzadi, xolos. Bu muayyan xarakterning ifodasi bo'lgan harakat, iroda yo'nalishidir. Xalil Sulton –tarixiy shaxs bo'lsada, dramaturg bu shaxsni badiiylashtirib berishga va uning xarakterini tarixiy faktlarga asoslanib jonlashtirishga urinadi. Har bir aytgan so'zi yo buyrug'i hamda qilgan amallari orqali o'z-o'zini ochish usulidan boradi. Masalam, Shodimulkxonim bilan bo'lgan suxbati drama boshida keladi. Bunda avvalo oilaviy munosabati ustun turishini muallif esga solib o'tadi. Xalil sulton va Shodimulkxonim samimiy suxbati beriladi ya'ni Yohyo otlig'ning javob so'raganini, ilk bor qanday uchrashganini (hamyonining bog'ga tushib qolishi bilan bog'liq voqea) keltirish bilan bu holat aniqlashadi. Dialogdan shuni payqash mumkinki, Xalil Sulton g'azab otiga mingan bir paytda Shodimulkxonim qizishmaslikka undaydi:

Sultonim, g'azabni zohir aylamang,

Podsholar g'azabni suymagay bisyor.....

Qizishmang, menga so'z bering

Aqlkush qaxrdin olislamogga ....

Dialogda Shodimulkxonim xalil Sultonning ayrim fazilatlarini og`zaki aytib o`tadi:

Siz aqlisiz,

Mirzolar ichinda bahodir, jasur!

Bobongiz hukmini aylangiz bajo!...

Yana-

Ko`ngli bo`sh odamsiz. G`ariblar boshin

Og`rinmay silishni qilursiz ado.

II sahnada Xalil Sulton tushini bayon etadi. Unda Amir Temurni ham tilga oladi (qo`zichoqlar, bo`rilar va Amir Temur siymosi). Voqealar ulanishi o`ziga xos bo`lgani seziladi. Sababi Amir Temur Ko`roganiyning vafoti Xalil Sultonga yetkaziladi. Amirning eng yaqin kishilari kelib X. Sultonga haqiqiy valiahd faqat siz degan so`zlarni aytib turishi achinarli holday edi. X. Sultonning yoshi kelgan beklar va o`zi tomonidan yigirma birga kirgani bildirib o`tilgan. Beklarning qistovi bilan Samarqand tomon yurish qilishiga majbur bo`ladi.

Xalil Sulton tabiati shoirlikka moilligi asardagi Ismatulloh Buxoriy bilan bo`lgan uchrashuvida ayon bo`ladi.

Xarakter o`z mazmun mohiyatini faoliyatda ochadi. Shunisi ham borki, xarakter yuzaga chiqmog`i uchun mazkur faoliyatda, o`ylarda, xatti-harakatlarda izchillik bo`lmog`i zarur.

Asarda **Shodimulkxonim** ham o`ziga xos tarzda vazifa tashiydi. Tarixchi Sharafuddin Ali Yazdiyning yozishicha, Shodmulk Xotun Samarqand shahrining quyi tabaqasiga mansub hunarmand oilasida dunyoga keladi. Amir Temurning suyukli nabirasi Xalil Sulton Mirzo (Mironshoh Mirzoning o`g`li, 1366—1408) kunlardan bir kun shahar chetidagi bog` ko`chadan otda o`tib ketayotib, Shodmulkka ko`zi tushadi va uni sevib qoladi. Xalil Sulton Mirzo (1384—1411)

jasoratli, harbiy salohiyatli va iste'dodli yigit bo'lgan. Balog'atga yetgach, uni aslzoda xonadon qiziga uylantirishgan. Undan bir o'g'li ham bor edi. Ammo Shodmulkni sevib qolgach, o'z zamonasining taomiliga qarshi o'laroq, shu qizga uylanadi. Tabiiyki, bunday «tengsiz» nikohga Temur boshliq butun avlod qarshi turishgan. Biroq Xalil Sulton Mirzoning qat'iy qarori g'olib chiqadi. Amir Temur avvalida qattiq g'azablangan bo'lsa-da, keyinchalik nabirasiga bo'lgan yuksak e'tiqodi tufayli uning gunohini kechiradi. Amir Temur vafotidan so'ng, 1405 yil mart oyida Xalil Sulton Mirzo Samarqand taxtiga o'tiradi. U saltanatni boshqarishda adolatni bosh mezon qilib, mamlakat ichki va tashqi ahvolini yaxshilash choralarini izlaydi. Lekin xotini Shodmulk begimning saltanat ishlariga faol aralashuvi natijasi o'laroq, arkoni davlat orasida ayrim noroziliklarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Shodmulk begim Temurning barcha beva xotinlari-yu xos kanizaklarini harbiy boshliqlar va amaldorlarga in'om qilish haqida Xalil Sulton Mirzoga maslahat berib, uni ko'ndiradi. Jumladan, 1406 yilda Temurning beva xotini Tuman Og'o begimni amir Shayx Nuriddinga xotinlikka beradi. Ibn Arabshohning yozishicha, "Saroy Mulk xonim bilan Tukul xonimlarni Shodmulk begimning maxfiy buyrug'iga binoan zaharlab o'ldirganlar. Temur davridagi bek va amaldorlarga yetarli iltifot ham ko'rsatilmaydi. Xazina va saltanat ishlarida Shodmulk begimning faoliyati battar kuchayadi. Shodmulk begimning xohish-irodasi ila quyi tabaqaga mansub kishilar yuqori lavozimlarga ko'tariladi. Temur safdoshlariga qarama-qarshi o'laroq, Shodmulk begimning xohishiga ko'ra qandaydir Bobo Turmush degan kimsa to'la huquqli vazirlik mansabini egallaydi. Amaldorlardan Ollohdod va Arg'unshohlarga ham hech qanday rag'bat bo'lmaydi. Arkoni davlat o'rtasida vujudga kelgan bunday nobarobarlik saltanat poydevoriga rahna solishi muqarrar edi. Zotan, ana shunday qulay vaziyat Shohruh Mirzo uchun asqotdi. 1409 yil bahorida Shohruh Mirzo qo'shini Bodxez mavzeiga kelib to'xtaydi. Xalil Sulton Mirzoning qo'shini esa Shahrisabzda jangga tayyor holda turardi. Shu asnoda shimolda amir Xudaydod boshchiligida qo'zg'olon ko'tarilgani haqida xabar beradi. Xalil Sulton Mirzo asosiy qo'shinni Shahrisabzda qoldirib, 4000 askar amir Xudaydodga qarshi borishga majbur bo'ladi. 1409- yil

30 mart kuni Xalil Sulton Mirzo amir Xudaydod tomonidan asirga olinib, Samarqandga keltiriladi va keyinchalik Farg'onaga olib ketiladi. Uning xotini Shodmulk begimni esa Shohruh Mirzoga topshiradilar. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda, Shohruh Mirzo Shodmulk begimni tahqirlab, ko'p azob-uqubatlarga duchor qiladi. Nihoyat, Xalil Sulton Mirzoni Farg'onadan O'trorga keltirib, amir Shayx Nuriddin vositachiligida Shohruh Mirzo bilai Xalil Sulton Mirzo o'rtasida bitim tuziladi. Bitimga muvofiq, Xalil Sulton Mirzo Movarounnahr hukmronligidan voz kechadi. Buning evaziga Ray viloyatining hokimi etib tayinlanadi. Xotini Shodmulk begim qaytarib beriladi. Ko'p o'tmay, 1411 yil 4-noyabr chorshanba kuni Xalil Sulton Mirzo Ray shahrida betob bo'lib, vafot etadi. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda, u zaharlanib o'ladi. Shundan so'ng 1411 yilning oxirida eridan keyin yashashni istamagan Shodmulk begim zahar ichib olamdan o'tadi"<sup>14</sup>.

Yuqorida nomi tilga olingan Bobo Turmush ham dramaga xuddi tarixiy malumot asosida bayon etiladi. Uni bosh vazir etib tayinlanadi. Lekin Shodimulkxonimga qarindosh ekanligi hech bir o'rinda tilga olinmagan.

Asardagi Shafqat devona faoliyatida ham muayyan izchillik mavjud. U atrofdagilarning toshbag'irligidan zada bo'lgan qalb tasviri. Devona deyilganda pala-partish hatti-harakat qiladigan, og'ziga nima to'g'ri kelsa, shuni gapirib ketadigan kishi gavdalanadi. Biroq Shafqat devona unday emas. Uning qarashlarida, fikrlarida, o'ylarida ma'lum bir izchillik bor, ruhiy olamida muayyan bir mantiqiylik bor.

**Shafqat devona** asar davomida bir epizodda ishtirok etsa-da, yodda saqlanib qoladi. U kun bo'yi ishlab topgan choy-chaqasiga daryo bo'yidan baliq sotib olib, ularni qayta suvga qo'yib yuboradi. Shu rahmdilligi uning boshiga yetadi. Baliqchilar uni suvga cho'ktirib yuborishadi. Rahmdillikning ko'pincha kulfat keltirishi Shafqat devona taqdiri misolida ko'rsatilar ekan, shu orqali Xalil Sulton qismatiga ishora qilinadi. Shafqat devona Xalil Sulton fe'l-atvorini

---

<sup>14</sup> www.ziyo.com

to'ldiruvchi epizodik obraz sifatida ishtirok etadi. U o'zining rahmdilligi bilan ma'lum darajada Xalil Sulton obraziga yaqinlashadi.

Asardagi har bir parcha, bo'lak, nutq, tush ta'biri, hodisa tasviri, fakt, dialog obyektivlashtirilgan xarakterlarning muayyan qirralarini to'ldirishga qaratilgan. Asar tilining lakonik xususiyati, badiiy tasvir vositalarining barcha-barchasi ana shunga xizmat qiladi"<sup>1</sup>.

Dramatik dostonlarda dramatism liro-epizm vobastaligida ham ro'yobga chiqishi mumkinki, U.Azimning "Xalil Sulton" asari bunga yorqin misoldir.

"Xalil Sulton" asariga tarixiylik nuqtai nazaridan yondashilganda, shoirning tarixiy voqea-hodisalarni chuqur o'rganib, katta tajriba bilan mavzuga qo'l urganligiga qanoat hosil qilish mumkin. Usmon Azim talqinidagi Xalil Sulton Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Davlatshoh Samarqandiy, V.V. Bartoldlar talqinidagi Xalil Sultonga bir jihatdan yaqin tursa, ikkinchidan, o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. U.Azim talqinidagi Xalil Sulton dramatik - murakkab psixologik holatlarda, dramatism va lirizm uyg'unlashgan o'rinlarda, hayotiy-maishiy lavhalarda o'zining xarakter qirralarini namoyon etadi. Shoir uning xarakterini yaratishda realistik va romantik tasvir usullaridan birday foydalanadi. Xalil Sultonning shahzoda va shoh sifatidagi holatlari, xususiyatlari realistik tasvir usullarini taqozo etsa, uning shoirligi va oshiqligi romantik tasvir usulini talab qilgan.

Xalil Sultonning shaxs sifatidagi dilbar fazilatlari ko'p ijodkorlarning diqqatini o'ziga qaratib kelganligi tabiiy. U.Azim bu xususida shunday deydi: "Ulug'bek Durbek taxallusida "Yusuf va Zulayho" dostonini yozgan, bu ishda unga amakivachchasi Xalil Sultonning Shodimulkka bo'lgan fojiali muhabbati ilhom baxsh etgan, degan gaplar ham yuradi. Bizningcha, Maqsud Shayxzoda "Mirzo Ulug'bek"dagi muhabbat sahnalarini Xalil Sulton hayotidan ulug' munajjimga ulashgan ko'rinadi".

Bu fikrni biz U.Azim Xalil Sulton obrazini yaratishda tarixiy faktlar bilan bir qatorda tasavvur va farazlarga ham erk berganligini ta'kidlash uchun keltirdik. Ko'pgina tarixiy manbalarda Xalil Sulton fojiasi o'zaro feodal urushlar natijasida yuz berganligi ta'kidlanadi. Usmon Azim bu fikrlarni rad etmagan holda Xalil

---

<sup>1</sup> Хасанов Ш. Достон таркиби ва табиати. – С.:2011. 77- Б

Sultonning fojiasini uning o'zidan izlaydi, ruhiyatidan, tabiatidan, xarakter mantiqidan qidiradi.

“Psixik narsaning ikkita yashash shakli mavjuddir, – deb yozadi S.L.Rubinshteyn. – Birinchisi, psixik narsaning obyektiv shakli, ikkinchisi, psixik narsaning subyektiv shakli – bu refleksiya, introspeksiya, o'z-o'zini tahlil qilish, o'zida psixik narsaning aks etishidir”<sup>15</sup>.

Dramatik dostonlarda, jumladan, “Xalil Sulton” asarida ham psixik narsaning ikkinchi shakli, ya'ni subyektiv shakli xarakter yaratishda muhim o'rin tutadi. Shuning uchun dramatik dostonlarda xarakter yaratish usullari boshqa janrlarda qo'llaniladigan xarakter yaratish yo'llaridan farqlanadi. Xarakter yaratish borasida lirik dostonlar dramatik dostonlarga ancha yaqin turadi. Har ikkala janrda ham xarakter yaratishning subyektiv shakli ko'proq talab qilinadi. Tojik adabiyotshunosi X.Otaxonovanning fikricha, lirik dostonlarda xarakter yaratishning subyektiv shaklini lirizm boshqarib boradi.

#### XALIL SULTON

Amir menga boqib falak toqidan

Yana ta'zim etdi... So'ng ketding, qoldim.

Otimni yetaklab keldim shu ko'shkka.

Va necha yillarkim, ko'zim o'rganib

Qolgan bu suratga nigohim tushdi.

Chaqmoq vujudimni teshg'onday bo'ldi,

Zirqirab ketdilar suyak-suyagim!

Inson boshi uzra quyunday qilich...

Ul ersa o'limni qilmay tasavvur

---

<sup>15</sup> Ўша асардан. 201-б.

“Nahotki” deb boqur engashg’on tiqqa.

Bo’g’zimga qalqinib yig’i qadaldi,

Oh urdim, ingradim, yugurdim giryon,

Anov ot ustida turgan o’g’lonning

Shodlikdan nurlangan qiyofasig’a

Toshlar otg’im keldi...

Ushbu she’riy monologdan ham ko’rinib turibdiki, dramatik dostonida harakatning dramtizmi emas, voqelikning dramtizmi lirika vositasida moddiylashayapti.

Asarning asosiy konfliktini quyuqlashtiradigan, bo’rttiradigan qator konflikt halqachalari shiddat bilan rivojlanib, bosh qahramonni asosiy konflikt tomon yetaklaydi. Xalil Sulton va Amir Temur, Xalil Sulton va bek-amirlar, Xalil Sulton va boshqa shahzodalar munosabatlaridagi murakkablik ham ziddiyatlar asarning bosh konfliktini jonlantirib turadi. Asarning umumiy ruhida goh bilinib, goh bilinmay ohangrabo yanglig’ jamiki unsurlarni o’zida jipslashtirib turgan asosiy konflikt Xalil Sultonning shoirligi va shohligi o’rtasidagi, Xalil Sultonning tabiati va taqdir hukmi o’rtasidagi kelishmovchilikdir, murosasiz qarama-qarshilikdir.

Tarixiy faktlarning guvoh berishicha, Temurning vafotidan so’ng 1405 yil 18 mart kuni Xalil Sulton Movarounnahrning oliy hukmdori deb e’lon qilinadi. Bu hukmdorlik atigi to’rt yil, 1409 yilning 13-mayigacha davom etadi.

Bu omadsizlikning, mag’lubiyatning ildizlari Xalil Sulton tabiatidagi ishonch va ezgulik daraxtining tomirlariga tutash. Xalil Sultonning sofdilligi, ishonuvchanligi, kechiruvchanligi, samimiyati uni fojiaga yetaklagan sabablarning sarchashmasidir. Taqdir o’yini Xalil Sultonni saltanat shohsupasiga ko’tarib, undan shafqatsiz, toshyurak bo’lishni talab qildi. Xalil Sulton shoir edi, darvishqalb edi. Taqdir talabini u bajarolmasdi.

Akademik B.Ahmedov “Mirzo Ulug’bek” essesda Xalil Sulton to’g’risida fikr yuritar ekan, Davlatshoh Samarqandiyning quyidagi mulohazalariga diqqatni jalb qiladi: “Sultonzoda Xalilulloh Amir Temur hukmronligi yillarida Eron-u Turon xirojidan jam’ qilg’on xazinasini ochdi. Nayson bulutidan yoqqan yomg’ur, balki Badaxshon la’l koni, Ummon dengizi kabi ko’p zaru javohirni lashkar va raiyatga in’om qildi...”. Shu faktning o’zi ham uning fuqaroparvar shaxs bo’lganligini ko’rsatib turibdi. Butun asar davomida Xalil Sulton ruhiyatida kechayotgan ziddiyatlar, tuyg’ular taloshi o’zligidan darak berib turadi. Obyektiv olam manzaralari ana shu ruhiyat tasviridan anglashiladi.

### **Xalil Sulton**

Amir-sarkardalarning

Ochdin o’lmoqdami bola-chaqasi?!

Oyo, zakot to’lab qiynaldilarmu?!

Xayru ehson so’rab biror boyvachcha

Ko’chada qoldimu sunnat to’yisiz?!

Oyo, amirlarning egnidan so’nggi

Churuk chaponlari tushib qoldimu?!

Oyo, xotinlari tashlab ketdimu?!

Qoq-quruq suprag’a boqmoqdin to’yib?!

Molu dunyo yana nechun alarg’a

Kerak bo’lib qoldi?

Arg’unshoh

Hukmdor, beklar

Ustundir bepoyon davlatingizg’a.

Alar rizo bo'lsa- olloh ham rizo!

Dramatik dostonlarda konflikt rivojini xarakterning o'z mantiqidagi va xarakterlararo ziddiyatlar belgilab turadi. Xalil Sulton ruhiyatida kechayotgan ziddiyatlar uning boshqalar bilan bo'lgan qarama-qarshiligini bosib tushadi hamda konfliktni jonlantirib turuvchi asos hisoblanadi.

Qarama-qarshi qutblar bo'lgan shoirlik va shohlikni bir shaxs o'ziga singdirishi qiyin. Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Sulton Husayn Boyqaro, Amir Umarxon, Muhammad Rahimxon II kabi zotlar ham hukmdor, ham ijodkor edilar. Lekin ularning hayot yo'li ham dramatik so'qmoqlardan iborat. Shuning uchun Xalil Sulton obrazini yaratish murakkab psixologik holatlarni, voqelikdan olinadigan turli xil kechinmalarni berishni taqozo qilardi. "Xarakterni uning psixikasisiz tasavvur qilish mumkin emas, chunki qahramon ruhiyatining tahlili xarakterning yaxlitligi va to'laqonligini ta'minlaydi, uni reallashtiradi, ta'sirchanligini oshiradi", bu ayniqsa, dramatik dostonlarda yaratilajak xarakterlar uchun zarur. Shu bois U.Azim Xalil Sulton psixikasida ro'y berayotgan o'zgarishlarni qadam-baqadam tadqiq qila boradi, natijada asardagi ichki dramatik uzviylik liro-epik tasvirlarda ro'yobga chiqadi.

U.Azimning "Xalil Sulton" asaridagi bosh qahramon nutqi, birinchidan, uning xarakter mantiqi bilan asoslanadi, ikkinchidan, uni o'rab turgan muhitni, sharoitni o'quvchi ko'z o'ngida gavdalantiradi.

### **Xalil Sulton**

(Eshikog'aga)

Borib yetkazingki shonli beklarg'a

Magar niyatlari to'g'ri, pok ersa,

Kirsunlar – kechurman gunohlaridan;

Gar qaro niyatla kelgan bo'lsalar,

Ketsinlar, jazoga ko'rmasmen loyiq.

Tangridan qo'rqsinlar, ha, mendin emas!

Ushbu nutqda tipik sharoit (buzg'unchi beklar misolida) hamda bosh qahramonning xarakter belgilari (ishonuvchanlik, soddalik, kechirimlilik) mujassamlashgan.

Xalil Sultonning xarakter belgilarini ko'rsatishda uning o'z nutqidan tashqari boshqa personajlarning nutqi ham qo'l kelgan. Muallif xarakter inikosida davrning tipik shart-sharoitlarini hisobga olib, munosabatlararo konfliktni fikr-tuyg'ular qarama-qarshiligida ko'rsatishga intilgan. Jumladan, atrofdagilarning oqibatsizligi va tomoshaga o'chligidan ozor topgan Shafqat devona hamda o'zaro feodal urushlarda o'g'lini yo'qotib aqldan ozgan Ayol obrazlari, bir tomondan, o'z davrining ruhini (tinimsiz urushlar misolida) aks ettirsa, ikkinchi tomondan Xalil Sulton bilan bo'lgan muloqotlarda uning xarakterini to'ldirishga, ayniqsa, ko'ngilchanligini bo'rttirib ko'rsatishga xizmat qilgan. Shuningdek, har ikkala personaj ham o'ziga xos fikrlash hamda iroda (ko'proq irodasizlik) yo'nalishiga ega.

## X U L O S A

Iste'dodli shoir Usmon Azimning dramaturgiya sohasidagi munosib xizmatlari millatimiz hayotida o'zining yorqin sahifasini ochib berdi. Unda esa millat hayoti aks ettirildi. Tarxiy va zamonaviy oilaviy-maishiy mavzularga bag'ishlangan asarlari bularning yorqin ifodasini beradi. Bir qator shoir va adiblar hayotini yortigan "Adibning umri", "Kunduzsiz kechalar", "Abdulla Qahhor" kabi dramalarida erk va ozodlik uchun olib borilgan kurashlar o'z ifodasini topgan. Millatimizning boy madaniy merosi asrlar osha yashab kelayotgan o'lmas qadriyatlarimiz o'sha asarlarda atroflicha tasvirlanadi.

Usmon Azimning "Bir qadam yo'l" asarida bir oilaning orzu-umidlari va kelajakka bo'lgan umidi qalamga olingan. Dramadagi personajlar ruhiyati to'liq yoritilgan.

Dramada Chol obrazi samimiy va yorqin ifoda etilgan. Chorasiz qolgan Chol umr bo'yi Samarqandni ko'rishni orzusi bilan olamdan o'tadi. Chol obrazi muallif niyatidan uzoqlashmagan holda Samarqandga borish istagini keltirishi bu – o'tkinchi dunyoda pulga, boylikka sotilmaydigan tushunchalar ham bor demoqchi ekanligidan dalolat beradi.

"Bir qadam yo'l" dramasi o'zbek adabiyotida voqyea bo'lgan asarlardan biri sanaladi. Unda millatimiz hayotiga daxldor jihatlarning umumlashma ko'rinishi jilvalanadi. Ixcham va aniq ifoda etilgan ushbu dramada millat hayoti aks ettiriladi. Bir-biridan har tomonlama ajralib turadigan personajlar ruhiyati yetarlicha ochib berilgan. Shunisi muhimki, shoir dramaturgiya sohasida ham o'z mahoratini ishga solib bir-biridan go'zal va yetuk asarlar yarata oldi.

"Kunduzsiz kechalar" tarxiy dramasi o'ziga xos uslubda yaratilgan asarlar sirasidandir. Unda XX asrning 30 yillarida kechgan voqea-hodisalar qalamga olinadi. Unda Cho'lpon hayotining yorqin sahifalari ko'z ungimizda gavdalanadi. Cho'lponning xiyonatga uchrashi va bir guruh adiblar qatorida otishga hukm etilgani ushbu dramada o'ziga xos tarzda real mohiyat kasb etgan. "Xalil Sulton" dramasida ijodkor temuriylar davlatidagi vaziyatlarni qayta jonlantirdi, deyish

mumkin. Shu bilan birga dramaturg Xalil Sulton, Shodimulkxonim, Sulton Husayn, Bobo Turmush, Shayx Nuriddin, Amir Xudoydod kabi tarixiy siymolarning xarakterlarini yoritadi. Drama nomi “Xalil Sulton” boʻlganligining oʻziyoq koʻproq Xalil Sulton obraziga urgʻu bergani koʻrinadi.

Umuman, Usmon Azim XX asr oxiri va XXI asr boshlarida katta ishga qoʻl urdi. Shu yillari oʻnga yaqin dramatik asarlar yozib oʻzbek adabiyoti xazinasiga munosib ulush qoʻshdi. Dilidagi muhim gaplarni ham sheʼriy, ham nasriy, ham dramatik asalari bilan kitobxonlarga yetkazib bera oldi. Ayniqsa, “Adibning umri” kitobida sinchiklab oʻqilsa bularning bari oʻzbek adabiyotining duru-gavharlari ekanligi ayonlashadi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

### **I. Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar**

1. Каримов И.А. Адолат, Ватан ва халқ манфаати ҳар нарсадан улуғ. Т.: Ўзбекистон, 1998.
2. Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, сиёсат мафкура.- Т.: Ўзбекистон, 1993
3. Каримов И.А. Ватанимиз тинчлиги ва хавфсизлиги ўз куч-қудратимизга, халқимизнинг ҳамжиҳатлиги ва букилмас иродасига боғлиқ. – Т.: Ўзбекистон, 2004.
4. Каримов И.А. Жамиятимиз мафкураси халқни – халқ, миллатни – миллат қилишга хизмат етсин. – Т.: Ўзбекистон, 1998.
5. Каримов И.А. Юксак маънавият - енгилмас куч. –Т.: Маънавият, 2008. -173 бет.

### **II. Ilmiy-nazariy va badiiy adabiyotlar**

6. Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. -Т.: Фан, 1992.
7. Азим У. Адибнинг умри. –Т: Шарқ, 2012
8. Азим У. Жоду. Т.: Шарқ НМК, 2003. – 336 б.
9. Азим У. Уйғониш азоби. –Т. 1991.-320 Б
10. Аҳмад С. Йўқотганларим ва топганларим. –Т.: Шарқ НМК, 1998.
- 11.-299 б.
- 12.Бадиият илми олами. Илмий-оммобоп мақолалар тўплами. Алишер Навоий номидаги Самарқанд давлат университети, 2012.-151 б.
- 13.Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари.-Т.: Ўзбекистон. 2000.
- 14.Ғаниев И. Фитрат ва фитрашунослик. – Т.: Фан, 2005. -300 б.
- 15.Ғаниев И.М. Фитрат драмалари поэтикаси. –Т. 1998. – 52 б.
- 16.Қосимов Б. Миллий уйғониш. – Т.: Маънавият, 2002. – 400 б.
- 17.Қуронов Д. Чўлпон насри поэтикаси. –Т., Шарқ. 2004.
- 18.Қўшжонов М. Ижод масъулияти. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – 344 б.
- 19.Муқимов З. Амир Темур тузукларидан. –Т.:Янги аср авлоди, 2001. -119 б
- 20.Солиев А. Тарихий шахс ва бадиий образ (И.Султон ва Уйғуннинг «Алишер Навоий» драмаси мисолида). / Алишер Навоий меросининг жаҳон сивилизасиясида тутган улкан мавқеи. Республика илмий

- конференцияси материаллари. – Самарқанд: СамДУ, 2001. – Б. 157 – 158.
21. Солиев А. Ҳаёт, драматургия, қаҳрамон. – Самарқанд: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти Самарқанд бўлими, 1990. – 76 б.
22. Солиев А. Ўзбек драматургиясида инсон талқини. – Т.: Зар қалам нашриёти, 2006. – 286 б.
23. Солиев А. Ҳамза биз билан. – Самарқанд: Китобсеварлар жамияти, 1987. – 28 б.
24. Султон И. Ҳаёт, адабиёт ва маҳорат. Асарлар 4 жилдлик, 2-жилд. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – 422 б.
25. Султон И. Адабиёт назарияси. – Т.: Ўқитувчи, 1986. – 408 б.
26. Турдиев Шерали. «Ҳинд ихтилолчилари» фожиаси ҳақида. // Шарқ юлдузи. – 1990. 4-сон. – Б. 32 – 34.
27. Умид А. Кўнгилга сайр. – Т.: Янги аср авлоди, 2009. – 209 б.
28. Умунов Ҳ.И. Адабиёт қоидалари. – Т.: Ўқитувчи, 2002. – 208 б.
29. Умунов Ҳ.И. Адабиёт қоидалари. – Т.: Ўқитувчи, 2003. – 237 б.
30. Умунов Ҳ.И. Адабиёт назарияси. – Т.: Шарқ НМК, 2002. – 256 б.
31. Умунов Ҳ.И. Адабиётшунослик назарияси. – Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004. – 264 б.
32. Умунов Ҳ.И. Бадиий ижод асослари. – Т.: Ўзбекистон, 2001. – 120 б.
33. Ўзбек совет адабий танқиди тарихи. 2 томлик, 1-том. – Т.: Фан, 1987. – 348 б.
34. Ўзбек совет адабий танқиди тарихи. 2 томлик, 2-том. – Т.: Фан, 1987. – 330 б.
35. Фитрат А. Адабиёт қоидалари. – Т.: Ўқитувчи, 1995. – 112 б.
36. Фитрат А. Танланган асарлар. 2-жилд. Илмий асарлар. – Т.: Маънавият, 2000. – 2008 б.
37. Ҳасанов Ш. Достон таркиби ва табиати. – С., 2011. – 228 Б
38. Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1983. – 376 б.
39. Худойбердиев Е. Адабиётшуносликка кириш. – Т.: Ўқитувчи, 1995. – 272 б.
40. Чўлпон. Адабиёт надири. – Т.: Чўлпон, 1994. – 240 б.
41. Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. – Т., Шарқ, 2004.
42. Шарафиддинов О. Чўлпонни англаш. – Т.: Ёзувчи, 1994. – 48 б.

### **III . Internet sayt.**

43. [www. Ziyouz. Com](http://www.Ziyouz.Com)

44. [www.google. Uz](http://www.google.Uz)

## **MUNDARIJA**

|                                                                |           |
|----------------------------------------------------------------|-----------|
| <b>Kirish.....</b>                                             | <b>4</b>  |
| <b>I BOB. Usmon Azim dramalarida obrazlar talqini .....</b>    | <b>9</b>  |
| <b>II BOB. Adib dramalarida tarixiy shaxslar ifodasi .....</b> | <b>34</b> |
| <b>Xulosa.....</b>                                             | <b>55</b> |
| <b>Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....</b>                 | <b>57</b> |